

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etildi”
Magistratura bo’limi boshlig’i,
dotsent _____ G’.A.Doliyev
“ ____ ” _____ 2020 yil

5A110801- Tasviriyy san’at va amaliy bezak san’ati mutaxassislik magistranti
Sattorova Sarvinoz Ortiqboy qizi

**“QO`QON NAQQOSHLIK MAKTABINING USLUBIY O`ZIGA
XOSLIGI VA MILLIY MADANIYATIMIZDAGI AHAMIYATI ”
mavzusidagi**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYA
ISHI**

Qo`qon naqqoshlik maktabining uslubiy o`ziga xosligi va milliy madaniyatimizdagi ahamiyati

MUNDARIJA:

KIRISH.....

I-bob. NAQQOSHLIK SAN`ATI TARIXI.

1. NAQQOSHLIK SAN`ATINI TASVIRIY SAN`ATDA ROLI.....
2. O`ZBEKISTONDA NAQQOSHLIK MAKTABLARINI O`ZIGA XOSLIGI.....

I-bob bo`yicha

xulosa.....

II-bob. QO`QON NAQQOSHLIK MAKTABINING NAMOYANDALARI IJOD YO`LI

1. QO`QON ME`MORIY OBIDALARIDA NAQQOSHLIK SAN`ATINING AHAMIYATI.....
2. QO`QON NAQQOSHLIK MAKTABINING KECHASI VA BUGUNI HAQIDA.....

II-bob bo`yicha xulosa.....

III-bob. NAQSH KOMPOZITSIYASINI YARATISH

1. NAQQOSHLIK MATERIALLARI VA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH TARTIBI.....
2. AMALIY SANA`T BUYUMLARINI NAQSH KOMPOZITSIYASI ASOSIDA BEZASH.

III-bob bo`yicha

xulosa.....

Umumiy xulosa va

tavsiyalar.....

Foydalanilgan

adabiyotlar.....

Ilovalar.....

KIRISH

“ADABIYOT VA SAN`AT, MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH-XALQIMIZ MA`NAVIY OLAMINI YUKSALTIRISHNING MUSTAHKAM POYDEVORIDIR”

SH.M.MIRZIYOYEV

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning yuqoridagi bildirgan fikrlarida chuqur ma'no bor.

Qo'qon shaxri ham o'zining chuqur tarixiy madanyati va me'morchiligi bilan muhim o'rin tutadi.

2018 yil 1 noyabrda «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida»gi Prezident Qaroriga asosan milliy hunarmandchilikning yirik va qadimiy maktablaridan biri hisoblangan Qo'qon shahrida an'anaviy tarzda har ikki yilda bir marta xalqaro miqyosda hunarmandchilik festivalini o'tkazish belgilangandi.

2019-yil Qo'qon shahrida festival ko'trinki ruhda otkazildi. Butunjahon hunarmandlar festivali har ikki yilda bir marta Qo'qon shahrida o'tkazilishi milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishda qutlug' qadam bo'ldi. Festival kunlari tarixiy ziyoratgohlar bo'ylab uyushtiriladigan sayyohatlar, hunarmandchilik va milliy liboslar ko'rgazmalari, badiiy va hujjatli filmlar tomoshalari, kitoblar, albom va fotosuratlar savdolari, askiya va qiziqchilar, folklor va dorbozlik jamoalari, polvonlar chiqishlari xalqimizning asrlar mobaynida sayqallanib kelayotgan qadriyatlarni butun dunyoga tarannum etadi. Ayni kunlarda Qo'qon shahrida xalqaro festivalga qizg'in tayyorgarlik ishlari olib borilayotir. Ko'hna kentda Xudoyorxon o'rdasi, Jome masjidi, Norbo'tabiy va Sohibzoda Hazrat madrasalari, Modarixon dahmasi va Dahmai shohon kabi 62 madaniy meros obyektlari mavjud. “Xalqaro hunarmandlar festivali ” Qo'qonni dunyoda nom olib tanilishiga sabab bo'ldi . Bizning shahrimizga “Hunarmandlar shahri” deya ta'rif berildi. , 5 kun davom etgan mazkur festivalda 79ga yaqin mamlakatdan 180 nafar saralangan hunarmand ustalar ishtirok etdi. Mazkur yirik masshtabli tadbir orqali unutilayotgan hunarmandchilik qadriyatlarini tiklash, ustoz-shogird an'anasini faol davom ettirish, milliy hunarmandchiligimiz bilan jahon hamjamiyatini tanishtirishni maqsad qilingan.. Festival ko'rik-tanlov shaklida bo'lib o'tdi. «Eng yaxshi hunarmand» , «Eng yosh hunarmand» , «Eng yaxshi hunarmandchilik maktabi vakili» , «Qadimiy hunarmandchilik turini tiklagan hunarmand», «Qadimiy sulola davomchisi» nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Shuningdek, festival doirasida ilmiy konferensiya, mahorat darslari, ko'rgazmalar, sayillar hamda konsert dasturlari namoyish etildi.

Xudoyorxon o'rdasi hududida joylashgan Hunarmandlar shaharchasi xalq sayllari, qo'g'irchoqbozlik, dorbozlar folklor jamoalari, viloyatlar madaniyat boshqarmalari tomonidan tayyorlangan konsert dasturlari bilan bayramona qiyofa kasb etdi. Mohir ustalar amaliy san'at buyumlarini o'z qo'li bilan yasashni istaganlarga mahorat darslari va treninglar o'tkazildi.

14 sentyabr kuni Qo'qonda birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi. Quyida davlat rahbarining nutqi matni bilan tanishishingiz mumkin.

Avvalo, sizlarni so'lim va maftunkor Farg'ona vodiysida, qadimiy va go'zal Qo'qon shahrida qutlashdan bag'oyat mamnunman.

Barchangizni YUNESKO rahnamoligida o'tkazilayotgan birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilishi bilan chin qalbindan muborakbod etaman.

Fursatdan foydalanib, Jahon hunarmandlar kengashi prezidenti, hurmatli Rozi Grinlis xonimga anjumanimizda shaxsan ishtirok etayotgani uchun samimiy minnatdorlik bildirishga ruxsat etgaysiz.

Festivalimizga tashrif buyurgan Rossiya Federatsiyasi madaniyat vaziri Vladimir Medinskiyni, Qozog'iston Respublikasi madaniyat va sport vaziri Aqto'ti Raimqulovani, Turkmaniston madaniyat vaziri Atageldi Shamuradovni, Tojikiston Respublikasi madaniyat vaziri Shamsiddin O'rumbekzodani, Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri Abulfas Garayevni, Qirg'iziston Respublikasi madaniyat, axborot va turizm vaziri Azamat Jamanqulovni, Belarus Respublikasi madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Natalya Karchevskayani, Armaniston Respublikasi ta'lim, fan, madaniyat va sport vazirining o'rinbosari Narina Xachaturyanni chin dildan qutlaymiz.

Bundan tashqari, Xitoy san'at va hunarmandchilik uyushmasi prezidenti Xu Nianshaga, Hindistonning Xaryana shtati turizm vaziri o'rinbosari Vijay Vardxanga, Malayziya xalq amaliy san'atini rivojlantirish korporatsiyasi bosh direktori Enchik Ibragim bin Ismoilga, shuningdek, YUNESKOning yuqori martabali vakillari hamda Jahon hunarmandlar kengashining Osiyo-Tinch okeani, Amerika va Afrika mintaqalari bo'yicha rahbarlariga samimiy minnatdorlik bildiriramiz.

Davramizda xorijiy davlatlarning O‘zbekistondagi muhtaram elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini ko‘rib turganimizdan xursandmiz.

Festivalimizda dunyoning 78 ta davlatidan 370 dan ziyod mohir hunarmand, taniqli madaniyat arboblari, san’atshunos olimlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etmoqda.

Barchangizni chin yurakdan qutlab, O‘zbekistonga, ushbu anjumanga bo‘lgan katta hurmat va e’tiboringiz uchun tashakkur izhor etaman.

Ma’lumki, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan xalq amaliy san’ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida o‘rin tutadi.

Insoniyatning ongli hayotida hunarmandchilikning paydo bo‘lishi – bu sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Bashariyat faxri bo‘lgan buyuk shaharlar, me’moriy obidalar, tarixiy va arxeologik yodgorliklar, minglab muzeylardagi nodir eksponatlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Hammamizga ayonki, xalq amaliy san’ati – bu avvalo, tabiat bilan uyg‘un bo‘lib, tabiatdan zavq va ilhom olib, betakror ijod namunasini yaratishdir.

O‘zingiz tasavvur qiling, oddiy qora tuproqdan, bir bo‘lak temir yoki yog‘och parchasidan noyob va go‘zal buyumlar yaratish, ta’bir joiz bo‘lsa, ularga “jonu til” bag‘ishlash uchun hunarmandga nafaqat mashaqqatli qo‘l mehnati, balki qalb harorati kerak. Nozik did va mahorat, sabr-toqat, eng muhimi, o‘z kasbiga cheksiz mehr va sadoqat, fidoyilik kerak.

Shu bilan birga, chinakam hunar sohibi – u kulol bo‘ladimi, kandakor yoki to‘quvchi bo‘ladimi, naqqosh yoki zargar bo‘ladimi – o‘z ishini a’lo darajada bajarish uchun juda ko‘p ilmlardan, avvalo, kimyo, biologiya, tibbiyot, fizika, geometriya, astronomiya, tarix, falsafa kabi fanlardan xabardor bo‘lishi, ularni amalda qo‘llay bilishi zarur.

Butun dunyoga mashhur bo‘lgan milliy kashtachilik san’atimiz, qadimiy so‘zanalarimizdagi sirli, mo‘‘jizali, ilohiy naqshlar, ranglar jilosi zamirida falakiyot ilmi, kosmogonik tasavvurlar mujassam ekani har qanday odamni ham hayratga soladi.

Xalqimiz azaldan o‘z kasbining chinakam fidoyisi bo‘lgan mohir hunarmandlarni “usta” va “ustazoda” degan nomlar bilan ulug‘lab, e’zozlab keladi.

Shu o'rinda buyuk mutafakkir Bahouddin Naqshband bobomizning "Hunar shunday tulporki, unga mingan kishi albatta hurmat-e'tibor topgay va saodat manziliga yetgay", degan hikmatli so'zlarini eslab o'tishni joiz, deb bilaman.

Kelgusi yili tavalludining 700 yilligi nishonlanadigan bu tabarruk zot nafaqat aziz-avliyo, avvalo, o'zlari ham yetuk hunarmand, ahli hunarning piri bo'lganlar. Bu ulug' siymoning "Diling – Ollohda, qo'ling – mehnatda bo'lsin" degan ezgu da'vatiga amal qilib, yurtimizdagi ming-ming hunarmandlar o'zlarining mashaqqatli, halol mehnati, insoniy fazilatlari bilan xalqimizga, yoshlarimizga ibrat va namuna bo'lib kelmoqdalar.

Ayni vaqtda bugungi globallashuv va yuksak texnologiyalar asrida xalq amaliy san'atiga shunchaki o'tmish yodgorligi sifatida bepisand qarash holatlari ham, afsuski, uchrab turibdi. Agar bu nodir san'atni davlat va jamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlamas ekanmiz, ertaga kech bo'ladi – hunarmandlik sohasi bugungi davrning keskin raqobatiga bardosh berolmaydi.

Shu ma'noda, jahon xalq amaliy san'atini asrab-avaylash va rivojlantirish, bu bebaho boylikni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, bu yo'ldagi sa'y-harakat va imkoniyatlarimizni birlashtirishda mana shunday xalqaro anjumanlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekistonda hunarmandlar mehnatini qadrlash, ularning samarali faoliyat yuritishlari uchun tegishli huquqiy asos, imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilmoqda. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan, o'z saflarida minglab ustalarni birlashtirgan "Hunarmand" uyushmasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Buxorolik mashhur zardo'z Muyassar Temirova, Samarqandlik ta'mirchi usta Mirumar Asadov, Farg'onalik yog'och o'ymakori Abdug'ani Abdullayev kabi yurtdoshlarimiz mamlakatimizning eng oliy mukofoti – O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgani ushbu soha vakillarining sharaflari mehnatiga yuksak e'tibor ifodasidir.

Biz farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning zamonaviy bilimlar bilan birga, xalq amaliy san'ati sirlarini ham puxta egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqdamiz. Respublikamiz poytaxti va joylarda ushbu yo'nalishda o'nlab festival va yarmarkalar, savdo ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda, yoshlar uchun hunarmandchilik maktablari tashkil etilmoqda. Eng muhimi, bu soha vakillari mamlakatimizda yangi ish o'rinlari yaratish, yoshlarni ijtimoiy mehnatga jalb etish, turizmni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda.

Biz tariximiz, milliy o'zligimiz timsoli bo'lgan, qadimiy va boy an'analarga ega hunarmandchilik sohasini rivojlantirishga yanada katta e'tibor beramiz. Bu borada mazkur xalqaro festival davomida o'rta tashlanadigan amaliy fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar, hech shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ilk bor o'tkazilayotgan Xalqaro hunarmandchilik festivali uchun aynan Qo'qon shahri tanlangani albatta, bejiz emas. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan bu qadimiy shahar haqli ravishda "oltin vodi" deb nom olgan go'zal Farg'ona vodiysining gavharidir.

Ikki ming yillik shonli tarixga, so'lim tabiatga ega, qancha-qancha buyuk voqealarga guvoh bo'lgan Ho'qandi latif milliy davlatchilik, ilmu hunar, san'at va adabiyot ravnaqining yorqin timsolidir.

Ko'hna Farg'ona zamini jahon ilm-fani va madaniyatiga Ahmad Farg'oniy, Burhonuddin Marg'inoniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Amiriy va Nodirabegim, Jahon otin Uvaysiy, Mavlono Muqimiy, Zokirjon Furqat kabi o'nlab mutafakkir zotlarni, ulug' shoir va adiblarni, Qodirjon Haydarov singari mashhur hunar ustalarini yetkazib bergani bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Birgina mana shu Farg'ona viloyatining o'zida milliy hunarmandchilikning qanday mashhur brendlari bor. Bu haqda gapirganda, Marg'ilonning kamalakdek tovlanadigan mashhur atlas va adraslarini, Rishtonning betakror kulolchilik san'atini, Qo'qonning yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik maktablarini, o'ylaymanki, ortiqcha ta'riflab o'tirishning hojati yo'q.

Bugungi kunda butun yurtimiz, butun Farg'ona viloyati kabi Qo'qon shahri, uning qiyofasi ham tubdan o'zgarib, har tomonlama obod bo'lib, mamlakatimizning yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylanmoqda.

Xabaringiz bor, ushbu festival arafasida shahar hayotida yana bir muhim voqea yuz berdi. Jahon hunarmandlar kengashi tomonidan Qo'qon shahriga "Jahon hunarmandlari shahri" degan yuksak unvon berildi. Ya'ni, Qo'qon shahri dunyo hunarmandchilik xaritasida ham munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Qo'qon shahri Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida birinchi bo'lib ushbu ro'yxatga kiritilganini biz mamlakatimizda xalq amaliy san'atini rivojlantirishga qaratilgan ishlarimizga xalqaro miqyosda berilgan katta baho, deb qabul qilamiz.

Kuni kecha Jahon hunarmandlar kengashining Osiyo – Tinch okeani mintaqasi prezidenti Gada Hijobiy Qaddumiy xonim Qo'qon shahriga ana shu guvohnomani tantanali ravishda topshirdi.

Mana shu quvonchli ayyomda muhtaram Qo‘qon ahlini, butun O‘zbekiston hunarmandlarini ana shunday yuksak e‘tirof bilan chin dildan tabriklayman.

Bunday ulkan e‘tibor uchun Jahon hunarmandlar kengashi va uning prezidenti, hurmatli Rozi Grinlis xonimga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

Ushbu xalqaro festival nafaqat ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqi, balki jahon hunarmandlari, butun dunyo ustalarining katta bayrami, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu – olis tarix va bugungi zamon nafasini, turli qadriyat va an‘analarni o‘zida yaqqol namoyon etadigan, mushtarak dillarni birlashtiradigan chinakam do‘stlik va hamkorlik anjumanidir.

Aminmanki, dunyoda tinchlik va hamjihatlikni, go‘zallik va nafosatni targ‘ib etadigan bu festival jahon maydonida albatta o‘zining munosib o‘rnini topadi.

Barchangizni mehmondo‘st va saxovatli O‘zbekiston zaminida yana bir bor chin yurakdan qutlayman.

Ushbu anjumanni yuksak saviyada o‘tkazish uchun sidqidildan xizmat qilgan barcha yurtdoshlarimizga, mehnatkash, oqko‘ngil, bag‘rikeng Farg‘ona eliga, Qo‘qon ahliga samimiy tashakkur bildiraman.

Festivalning barcha qatnashchilariga, muhtaram mehmonlarimizga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar tilayman”.

Borliqni kuzatar ekanmiz, bizni qurshab turgan olam turli-tuman ranglardan iborat ekanligini ko‘rib hayratga tushamiz. «Bu ranglarda qanchalik ma‘no yotadi?» - deb o‘yga tolasan. Ajdodlarimiz tabiatning shu sirli olamiga hayratga tushib, asrlar davomida uni o‘rganib kelishgan. Har bir rang bir olam ma‘noni anglatadi. «Nima uchun tabiat yashil rangda yaratilgan? Buning sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo‘lsa, qanday ma‘noni anglatgan bo‘lar edi? Qaysi ranglar inson kayfiyatini ko‘taradi? Qay biri salbiy yoki ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi? Inson yoki hayvonlarning ranglari orqali ular salomatligini aniqlasa bo‘ladimi?».

Asrlar davomida ajdodlarimiz, fan arboblari muayyan darajada ilmiytadqiqot ishlarini, tajribalarni o‘tkazib kelishmoqda. Hozirda, hatto ba‘zi rivojlangan mamlakatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar bu borada samarali faoliyat ko‘rsatib kelishmoqda. Bu o‘rinda Yaponiyaning Tokio shahridagi dunyoga mashhur rang institutini ta‘kidlash mumkin. Yirik olimlar tomonidan rang tufayli ramziy ma‘noda «so‘zlashish», ranglar vositasida insonlarni davolash, tarbiyalash, ranglar jilg‘asi orqali falsafiy fikr yuritish, rang orqali insonlarning ichki dunyosini anglash, shuningdek, ranglarning qishloq xo‘jaligi unumdorligini oshirishda, iqtisodda va boshqa masalalarni ijobiy hal

etishdagi mavqeyi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma'lumki, ta'lim tizimida rangshunos fani o'rgatiladi. Lekin, hozirgi zamon talabiga javob beradigan darslik o'quv-qo'llanma, elektron versiya vaboshqalar yetarli emas. Rangshunoslik fanining o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan. Ajdodlarimizni amaliy san'at turlaridan qoldirgan ma'naviy merosiga murojaat qilsak, qanday buyum yoki bezak bo'lmasin, ular shakl, rang va hajmga ega. Masalan, o'sha bezakning rangi inson psixikasiga turlicha ta'sir etadi, bu ranglar o'ziga xos ramziy ma'noga hamda shifobaxsh xosiyatga ega bo'ladi. Shunday ekan amaliy san'atning bo'lajak usta - muallimi rangshunoslik fanini chuqur va atroflicha bilishi zarur.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi. Insonning dunyo qarashini kuchaytirishda san'atning o'рни beqiyos. U inson hayotini mazmunli qiladi, ma'naviy jihatdan boyitadi. Chunki san'at insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi barobarida, uning his-tuyg'ularini uyg'otadi, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, ezgulik sari etaklaydi. Bu bilan insonning ma'naviy o'sishiga sharoit yaratadi, ijtimoiy va shaxsiy hayotida eng murakkab muammolarni hal etishga yordam beradi, har bir kishi hayotda o'z o'rnini topishiga ham ko'maklashadi. Buning uchun san'atni tushunish, u bilan oshno bo'lish lozim. Har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z - o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi. Ota – bobolarimiz ruhiy olamining tomir – ildizlari aynan shu ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Xalq amaliy san'ati o'quvchilarda badiiy didni o'stirish bilan bir qatorda ularda borliqni idrok etish madaniyatini va ularga nisbatan estetik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning badiiy mayllarini amaliy jihatdan to'g'ri yo'naltirish, keyinchalik uy jihozlari, kiyim-kechaklarga to'g'ri munosabatda bo'lishiga, qadimgi va hozirgi zamon amaliy-bezak san'ati asarlarining estetik mohiyatini tushunib yetishga ko'maklashadi. O'quvchilarni

xalq ustalari ijodida obrazlilik bilan tanishtirish, borliqda estetik munosabatni o'stirishga yordam beradi. Xalq amaliy san'atini o'rganish o'quvchilarning borliqqa estetik munosabatini shakllantirish va badiiy fikr doirasini kengaytirish borasidagina emas, balki u bolalarning tasviriy ijodiy faoliyatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar qadimgi xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan mavzuda rasm ishlar ekanlar, ular bevosita uy jihozlari (so'zana, gilam, patnis, lagan, tovoq, choynak, piyola, quticha, oftoba, la'li, qumg'on, xum, sandiq, choyidish, xontaxta, panjara va h.k), yog'och va ganch o'ymakorligi buyumlarini tasvirlashlariga to'g'ri keladi. Bunda ularga xalq amaliy san'atidan olgan bilim va tushunchalari qo'l keladi. Xalq amaliy san'ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarni qondirish, tevarak-atrofga, bog'-rog'lar, uylarni tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritishga xizmat qiladi. Bu san'at dastgox, san'atdan o'zining bevosita xalq, ehtiyojlariga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmuni bilan bog'lanadi. Amaliy- bezak san'atida xayotdagi mavjud narsalar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar) aks etadi. Lekin, ular mustaqil xususiyatga ega bo'lmasdan, ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'lanib, uni bezashga xizmat kiladi. Amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin-ijodkor tafakkuri maxsuli sifatida yaratiladi va u tevarak- avtrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomonlariga ishlanadigan rangli naqsh va bo'rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Xalq amaliy san'ati juda qadim zamonda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib san'atning eng qadimgi rivoj topgan va barhayot turi bo'lib kelgan.

Ma'naviyat keng ma'noda ma' rifat, ma'daniyat tushunchalarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Ahloqiy tarbiya esa shaxsning ona Vatani, hulqi, boshqa millat vakillari , mehnat, insonlar va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini majmuidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoev 2016-yil yakunlarida "Eng avvalo yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixi, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, johon ilm-fani va

adabiyoti yutuqlarini etkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish ustufor vazifalardan hisoblanadi”¹, deb takidlab o`tdi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev ham yurtimizdagi ko`plab sohalarida bo`lgani kabi, mamlakatimizdagi ma`naviyat va marifat, madaniyat va shu qatori san`at sohalariga ham alohida e`tibor berib, ezgu bunyodkorlik g`oyalarini amalga oshirishga butun xalqimizni da`vat etmoqdalar. Davlat miqyosdagi katta majlislarda san`atni yoshlarimiz tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligini va milliy san`atimizni bugungi tezkor va mafkuraviy kurashlar avj olgan tahlikali zamonamizda inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy omili ekanligini, milliy san`at, hunarmandchilik va tasviriy san`at turlari rivojida ijodkor rassomlarimiz, ustalarimiz, san`atkorlarimizning qilgan ulkan ishlari katta ma`naviy jasorat, buyuk qahramonlik ekanligini alohida ta`kidlab o`tmoqdalar. Kuni kecha chop etilgan Shavkat Mirziyoevning “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” nomli asarlarida ham mamlakatimizning ma`naviy, madaniy hayotini rivoj topishida, xalqimizning ma`naviy xazinasiga o`zining katta hissasini qo`shgan mashhur san`atkorlarimiz, qahramonlarimiz nomlarini yodga olib quyidagi fikrlarini aytib o`tdi:

“O`zbek zamonaviy tasviriy san`ati rivojiga O`zbekiston xalq rassomlari Chizgiz Ahmarov, Malik Nabiev, O`rol Tansiqboev, Rahim Ahmedov, Jaloliddin Mirtojiev kabi marhum san`at ustalari buyuk hissa qo`shdilar. Atoqli rassom va haykaltaroshlarimiz Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Vladimir Burmakin, Ilhom Jabborov, Akmal Ikromjonov, mashhur xalq ustasi Ortiq Fayzullaevlarning ijodi haqida har qancha faxrlanib gapirsak, arziydi.”²

Qo`qon — o`tmishi sharaflı, buguni saodatli va kelajagi buyuk shahar. U o`zida qariyb o`n asrlik boy tarix va qadimiy sivilizasiya namunalarini mujassam etadi. Farg`ona vodiysining janubiy qismida joylashgan bu noyob shahar azal-azaldan o`troq hayot, sug`orma dehqonchilik, ilm-fan va taraqqiyot markazi bo`lishi bilan birga, jahon tarixida haqli ravishda insoniyatning madaniy beshiklaridan biri sifatida e`tirof etilgan bo`lsa, Qo`qon tarixiy obidalaridagi aks ettirilgan naqshlar har bir odamni nazaridan chetda qolmaydi.

¹ Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалиқ қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 47.v¹

² Sh.Mirziyoyev.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.T. O`zbekiston 2017. 447-bet

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi, yurtimiz amaliy san`atini, jumladan, naqqoshlik maktablarini ilmiy o`rganish, yurtimiz tarixiy madaniyatga boy bo`lib uni asrab avaylashimiz, bizning shahrimizda xalq amaliy san`atiga kata e`tirof etilishi, shahrimizni “Hunarmandlar shahri” deya ta`rif berilganligi bejizga emas.

Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma`naviyat olami yangi ma`no – mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, mashg`ulotlar orqali esa yoshlarni axloqiy- estetik ruhda tarbiyalash uchun bugun Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlarni shuning uchun ham to`g`ararak mashg`ulotlari orqali yoshlarni bo`sh vaqtdan unumli foydalanish va o`quvchilarni tarbiyalash ushbu tadqiqot ishining dolzarb muammosi hisoblanadi.

Mazkur bitiruv malaka ishi amaliy san`atning eng katta turi naqqoshlik san`atimizning milliy madaniyatimizda aks etib yaratilganligi, bu san`at turi vujudga kelishi va uning bajarilish texnologiyasi haqida yoritiladi.

**Tadqiqot ob`ekti va predmeti:** Tadqiqotning ob`ekti qilib O`zbekistonda tasviriy va amliy san`atiga oid asosiy adabiyotlar va Naqqosh ustalar bajargan ishlarni o`rganish uchun madaniy boyligimizda aks etgan ijodiy ishlar namunalarini olishimiz mumkin. Yo`qolib borayotgan ushbu san`atni qaytadan tadqiq qilish ilmiy ishning asosiy predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotni maqsadi va vazifalari: Mazkur ishda yo`qolib borayotgan Qo`qon Naqqoshlik san`ati turini qaytadan tiklash, usta naqqoshlarining ijodiyotini kelajak avlodlarga yetkazib berish va ularning iz qoldiruvchi davomchilarini, Ustoz-Shogirt an`anasida tarbiyalashni bosh maqsad qilib olim. Yosh avlodimizni ular ongida milliy tafakkurni va vatanparvarlik g`oyalarini shakllantirishda Tasviriy san`at fanining o`rni va imkoniyatlari cheksizdir va

milliy madaniyatimizni asrab avaylashni o'rgatish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atni yanada rivojlanishida, Qo'qon naqqoshligi misolida ishlab chiqish va xissa qo'shish.

Hozirda qurilayotgan ko'cha, xiyobon, binolarni badiiy bezash uchun naqqoshlik san'atini asos qilib, yosh avlodga etkazish va ma'naviy yuksak badiiy did egasi qilib tarbiyalash maqsad va vazifasi deb biladi.

Uning vazifasi quyidagicha:

1. O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atining rivojlanishi bosqichlari va taraqqiyotini o'rganish va tahlil qilish.
2. O'zbekiston Respublikasida amaliy san'atining kata turlaridan bo'lgan naqqoshlik pedagogik ahamiyatini yoritish.
3. Qo'qon naqqoshligi san'atining o'ziga xos xususiyatlari to'plash, o'rganish.
4. Qo'qon naqqoshlik maktabi namoyondalari va asarlari tahlil qilish.
5. Qo'qon naqqoshlik maktabining boshqa naqqoshlik maktablaridan farqli tomonini aniqlab berish.
6. Naqshlarning o'zbek milliy buyumlarida bezatilishi texnologiyasini o'rganish.
7. O'zbekiston Respublikasining amaliy san'atida Qo'qon naqqoshlik maktabining o'ziga xosligi va milliy madaniyatimizdagi ahamiyatini ishlab chiqish.

O'rganilganlik darajasi: O'zbekiston Respublikasida amaliy san'at rivojlanishida prof. R.Hasanov, S.Bulatov, Q.Qosimov, B.Q.Xolmatov, Ye.V.Lebedeva, K.M. G'ulomov, M.B. Ahmedov, M.K Mirzahmedov, H. Egamov, M. Nabiyev va ko'plab boshqa olimlarning izlanishlarini misol qilib olishimiz mumkin. Masalan, Q.Qosimovning "Naqqoshlik" [22] kitobini oladigan bo'lsak unda xalq merosidan unumli foydalanish va asrab avaylash haqida beixtiyor to'xtab o'tilgan. Albatta bu kitobda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga va talabalarda estetik didni tarbiyalashga xizmat qiladigan jihatlari ham uchratamiz. Bundan tashqari S.Bulatovning "O'zbekiston halq amaliy bezak san'ati" [29]

kitobida O'zbek xalqining boy meroslari va amaliy san'ati bo'lmish: ganchkorlik, zardo'zlik, naqqoshlik, kandakorlik, tosh o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi, pichoqchilik san'ati, kulolchilik san'ati, zargarlik san'ati, kashtachilik, gilam to'qish san'ati, savat to'qish san'ati va boshqalar haqida ma'lumotga ega bo'lib bilimlarni mustahkamlaymiz. S.Bulatovning yana bir "Rangshunoslik" [22] kitobida esa amaliy san'atning asosi bo'lmish ranglar haqida yoritilib ranglarning jilvakorligini, kelib chiqish tarixi, va qo'llanilish texnologiyasi xaqida aytib o'tilgan. Xatto-ki, Farg'onalik san'atshunos Xalima Rafiqova ushbu magistrlik dissertatsiya ishi 2007-yil rus tilida ximoya qilingan. Ammo bu risolalarda va kitoblarda, Qo`qon naqqoshlik maktabining kechagi va bugungi davomchilarining ijodi haqida ochiqroq yoritilib bermaganligi, bu masala yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ozchilikni tashkil qilganligi sababli men dissertatsiya mavzuyimni shu mavzu yuzasidan olishga qaror qildim.

Ilmiy yangiligi: X.Rafiqova tomonidan ximoya qilingan dissertatsiyada Farg`ona, Marg`ilon, Quva naqshlariga to`xtalib o`tgan bo`lsa-da, Qo`qon naqshi namoyondalarining davomchilari O`zbekistondagi ijodiy ishlari haqida umumiy qilib yoritilgan.

Dessertatsiya ishida yangiligi shundaki, Farg'onaning gavhari Qo`qon naqshi o`ziga xosligi , yorqin ranglarini boshqa maktablardan farq qilishi, Qo`qonning kechasi va bugungi naqqoshlari va ularning ijodiga alohida to`xtalib, nafaqat O'zbekistonda balki MDH davlatlarida ham o`z ijodlarini namoyish etganligi to`g`risida mulohaza yuritildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farzlari: O'zbekiston naqqoshlik maktablari va uning namoyondalari haqida o`rganish. Qo`qon naqqoshlik maktabini o`ziga xosligi milliy madaniyatimizdagi ahamiyati, naqqoshlik san`ati shakllanishi, ularning kelib chiqish tarixini o`rganish, Mamlakatimizdagi naqqoshlar tomonidan yaratilayotgan asarlarni o`rganib, ulardagi milliyligimizni kelajak avlodga yetkazish, san'atini va unga qo'yiladigan talablarini o`rganish, tadbiq etish, yoritish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy masala va farazlar hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili):

Qisqa tarixiy vaqtda O'zbekiston yuksak dovonlarni oshib o'tdik desak mubolag'a bo'lmaydi. XX asr O'zbekiston tasviriy san'ati va amaliy murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu tarixiy badiiy jarayonni tahlil qilish, naqqoshlik san'ati paydo bo'lishi va uning rivojlanish yo'lini ilmiy nazariy o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston naqqoshlik san'atidagi muayyan tamoyillar taraqqiyotiga bag'ishlangan qator monografiyalar va tadqiqotlar ham mavjud. Lekin ularda san'atning ayrim jihatlari tahlil qilingan holos. Adabiyotlarning kompleks tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiq etilayotgan mavzu bir necha bor ilmiy o'rganish obyekti bo'lib kelgan.

Ushbu dissertatsiyamni yozishda O'zbekiston san'at muzeyining axborot resurs markazi, Farg'ona milliy teleradiokompaniyasi arxivi, Qo'qon shahar O'lkashunoslik muzeyi arxivi va tarixiy majmualar, internet tarmoqlari va adabiyotlardan asosiy manba sifatida foydalandim.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, amaliy ish bajarish, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Magistrlik dissertatsiyasidan tasviriy san'atga ixtisoslashgan internat litseylarda "Tasviriy san'at va amaliy san'at" fanlaridan hamda oliy o'quv yurtlari Tasviriy san'at yo'nalishi talabalari uchun "O'zbekiston san'ati" va "San'at tarixi", "O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati", "Naqqoshlik san'ati" va hokazo fanlaridan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning davriy chegarasi. 1883-yildan to hozirgi davrlargacha bo'lgan Qo'qon naqqoshlik maktabi va uning namoyondalari ijodini o'rganishdan iborat.

Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi ishi kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Magistrlik dissertatsiyasi hajmi _____betni tashkil qiladi. Magistrlik Dissertatsiyasining **xulosa**

qismida bajarilgan ishlar natijalari umumlashtirilib, mavzu bo'yicha tavsiya va takliflar keltirilgan.

Ishning natijalari bo'yicha maqolalar chop etish;

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari taxlili bo'yicha xorijda va respublika miqyosidagi konferentsiyada tezislar, ilmiy to'plamlarda maqolalar chop etildi. mavzusida maqolalari e'lon qilindi.

I-bob. NAQQOSHLIK SAN`ATI TARIXI.

1. NAQQOSHLIK SAN`ATINI TASVIRIY SAN`ATDA ROLI.

O`zbekiston tasviriy san`atining sho`rolar davridagi rivojlanish tarixi endilikda tarixiy haqiqatga hurmat bilan yondashuv asosida xar taraflama haqqoniy ochib berishi kerak. 1980-yillar birinchi yarmida jamiyat ijtimoiy hayotida sodir bo`lgan keskin burilishlar rassomlar ijodida ham o`z tasrini o`tkazdi . Bu paytga kelib ular ozlari hohlagan yo`nalishda asarlar yaratib erkin ijod boshlashgan. Chunki tasviriy san`atning dastgohli rangtasvirida voqealik muayyan fazoviy kenglikda gavdalantiriladi. Unda ochiq oydin ko`rinmaydigan, hamma ham e`tibor qilavermaydigan jihatlariga turli ramz va belgilar orqali ishora qilinadi, buning uchun rassomdan juda katta mahorat talab qiladi.

1986-87 yillarda V.Oxunov O`zbekistonda ilk bor instalyasion kompozitsiyalarini yarata boshladi. O`shanda musavvirning bu dadil intilishlari hammaga ham birdek tushunarli bo`lmagan edi. Hozir rassomlarning noan`anaviy holatlar ko`proq qiziqtiradi. Shu boisdan E.Ishoqov kamalakning “rangin iplar”i o`rniga zanjir tortadi yoki metalni qaqyta ishlab, teshib sirtiga qadimiy tamg`alarni tushirib, yana boshqatdan qo`yadi. Bu- postmodernizm san`atiga xos xususiyadir. Ayni yo`nalishdagi asarlar jaxon tasviriy san`atida juda ko`p. Masalan, rassom Krikas plastmassani kuydirib, yo odam,yoki ingichka sim yo chuchmoma yasaydi va shu asosda g`aroyib manzara yaratishga erishadi. Uning bu xildagi asarlari ham postmodernizm san`atiga xos. Bu rassomlar tomoshabinlarnin o`yga toldirishga, fikirlashga o`rgatadi. Masalan B.Oxunovning oddiy narvonlardan iborat installyasiya asari kishiga birdan ta`sir ko`rsatib, unda turli ta`surotlar uyg`otsdi. Zamonaviy san`at mumtoz san`atdan shu kabi jihatlar bilan ham ajralib turadi. Postmodernizm san`ati kishilar tasavvurini kengaytiradi.

Tasviriy san'at va postmodernizm bir-birini to'ldirib, boyitib turadigan san'at turlari hisoblanadi. Dekorativ san'atning asosiy vazifasi fikrlar xilma-xilligini qaror toptirishdan iborat. V. Oxunovning "Yonayotgan uy", "Eski tegirmon" asarlari 1980-yillar O'zbekiston tasviriy san'atiga yangicha ruh bag'ishlagan asarlar sirasiga kiradi. Tasviriy san'atda bunday yo'nalish "Fojeaviy romantizm" deb yuritiladi. Inson obrazi O'zbekiston rangtasvirida bunday tarzida tasvirlanmagan. Tasviriy san'atning ushbu yo'nalishdagi asarlarida inson obrazi an'anaviy asarlardagi kabi traktorchi, paxtakor, quruvchi qiyofasida emas, balki o'z elkasida butun dunyo tashvishini ko'tarib turgan mavxum qahramon sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir uslubini modern she'riyat uslubiga qiyoslash mumkin. Rassom inson obrazining bu holatini aks ettirish uchun o'ziga hos badiiy "til"da gapiradi. U uchib ketayotgan odam qiyofasini uylardan o'sib chiqib, ulg'ayib borayotganday ko'rsatadi. Uy kichik, odam esa unga nisbatan katta. Bu aynan tarixga hos ifoda. Voqealikni noan'anaviy tarzida aks ettiris, jismlarni havoda uchib yurgan, muallaq holda mavxum tasvirlash o'zbek tasviriy san'atida ilk bor shu davrda namoyon bo'lgan. V.Oxunov rangtasvir asarlarining umumiy kompozitsiyasi o'ziga xos usluda yaratilgan.

O'zbek tasviriy san'atining 1980-yillar ikkinchi yarmiga xos harakterli jihatlaridan yana biri bu tasviriy san'atda 1920-yillarda kechgan jo'shqin izlanishlar, ifoda vositalarini yangicha uslubda qo'llashga intilishining namoyon bo'lganidir. Rassomlar bu davrda o'z asarlarida 1920-yillarda yaratilgan asrlarga hos ifoda vositalaridan ijodiy foydalanishgan. Chunki 80-yillarda ijodkorlar o'z ijodiy imkoniyatlarini bemalol, erkin namoyon etish uchun zarur shart-sharoitga erishdilar.

Rassomlar bu davrda kundalik hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni qanday his qilishgan bo'lsa, shundayligicha ifoda etishga harakat qilganlar. Bu xususiyatni o'sha davrning rassomlari V. Oxunov, S. Alibekov, M. Taxtaev, A. Turdiev, N. Shin kabi rassomlarning ijodida kuzatishimiz mumkin.

Ommaviy madaniyatning tasviriy san'atdagi ko'rinishi pop-art (Ommaviy san'at) tarzida namoyon bo'ldi, u ko'pchilik tomoshabinlarga tushunarli

bo'lmagan abstraksionizm o'rniga egalladi. Bu sohada ishlangan asarlar 1980-yillarda O'zbekistonda tasviriy san'atda avangardning postmodernizm, heppening, installiyatsiya kabi turli ko'rinishlari (pop-art, op-art va h.k) yuzaga keldi. Rassomlar dastgohli rangtasvirda ham badiiy stuk asarlar yaratish yo'lida izlanishlar olib borishdi. Modern o'zbek tasviriy san'atiga rassomlar uchun ijodiy o'ziga hoslikni hamoyon etish imkonini beruvchi uslub sifatida kirib keldi. Ko'pgina rassomlar tomonidan ishlangan asarlari tijorat uchun chizilganligi bois ularni sotish maqsadida qator ko'rgazmalar uyushtirildi. An'anaviy akademik- realistik uslubda ijod qiluvchi keksa rassolar ham moddiy manfaatni ko'zlab, sotishga mo'ljallab, keng omma didiga mos asarlar yaratishdi. Natijada, musavvirlar tomonidan ishlangan asarlar moddiy manfaat uchun ishlanganligi sababli rassomlar uyushmasi tizimiga putur yetadi. Turli guruhlar yuzaga kelib, rassom va san'atshunoslar uning tarkibiga kira boshladilar. Bunday vaziyat rassomlar uyushmasining tarqab ketishiga olib kelishi mumkin edi. Paydo bo'lgan guruhlarda ijodkorlar soni turlicha bo'lib, ayrimlari yirik bo'lsa, ba'zilar hatto, ikki kishidan iborat bo'lgan. Tasviriy san'atda ana shunday murakkab vaziyat yuzaga kelgan bir paytda turli galereyalar, san'at asarlari tijorati bilan shug'ullanuvchi firmalar ham paydo bo'la boshlagan. Ular asosan shaxsiy munosabatlar, ijodiy yangilik asosida tashkil topgan edi. Postavangard o'sha davr uchun oraliq uslub hisoblanib, so'ng avangard oqimi yuzaga keldi.

1990-yillargacha bo'lgan davrda rassomlar katta avlodining iste'dodli namoyandalari O'zbekisto tasviriy san'atida milliy mavzularning zamonaviy talqinini rivoji uchun zamin yaratishdi. Turli rassomlik maktablarida tahsil olgan, har hil oqimlar, yo'nalishlarga mansub bu iqtidorli rassomlar ijodiga dunyo tasviriy san'atidagi kechayotgan jarayonlarni o'rganishga intilish samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu esa respublikadagi badiiy muhitni yanada jonlantirdi.

O'tgan 70 yillik tarixiy davrda o'zbek tasviriy san'atida zamonaviy uslublar hamda yangi ijodiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bu sohada ijod qilgan ko'plab

rassomlar , o`z asarlari bilan O`zbekiston sa`atida yangi ijoodiy yondashuvlar yuzaga kelishiga asos soldi. Evropa va SHarqiy tasviriy san`atga xos an`analar san`atning bu yo`nalishida bir-biri bilan o`zaro uyg'unlashib rivojlandi. Ham mahobatli san`at turi, ham dastgohli rangtasvir yonma- yon shakllandi . Masalan, CHingiz Ahmaroning Navoiy teatri foesiga, Baxodir Jalolovning Qoqon drama teatri devoriga ishlangan asarlarida mahobatli va dastgohli rangtasvirga xos xususiyatlar o`zaro uyg'unlashgan. F. Zayniddinov, SH. Maxkamov, V. Oxunov O`zbekistonda dastgohli rangtasvirning rivojlanishiga munosib hissa qo`shishdi. Ularning asarlari o`zida milliy ruhni mujassamlashtirishi bilan diqqatni jalb etadi.

O`zbekiston tasviriy san`atida ishlangan asarlar o`zining tarixiy taraqqiyotida murakkab yo`lni bosib o`tdi. Turkistonda kechgan jo`shqin siyosiy o`zgarishlar jarayonida yuzaga keldi va yangi badiiy ijod shakli sifatida rivoj topdi. XX asrda A.Volkov, A. Tatevosyan, Usta Mo`min, P. Benkov, M. Kurzin, Z. Kobalevskaya, N. Kashina kabi buyuk rassomlarimiz O`zbekiston tasviriy san`atida milliy mazularda dastlabki asarlarni yaratgan. Mamlakatdagi ijtimoiy- siyosiy o`zgarish tasviriy san`at shakllanishi va rivojiga o`z tasirini o`tkazmasligi, mumkin emas edi. Oktabr to`ntarlishidan keyingi dastlabki o`n yillikda bu jarayonga G`arbiy Evropa san`atidan “oziqlangan” rus badiiy madaniyati samarali tasir ko`rsatdi. SHunday bo`lsada, dastgohli rangtasvirda ijod qilgan milliy rassomlar asarlari milliy ruh, milliy kolorit, milliy o`zligini anglash hissiga yo`grilgani aniq seziladi. O`. Tansiqboev, B. Hamdamiy, L. Abdullaevning 1930-yillardagi asarlari shundan dalolat beradi.

1960-yillarda O`zbekiston tasviriy san`atda milliy mazularda ijod qilgan rassomlarning navbatdagi avlodi (R. CHoriev, B. Jalolov, J. Umarbekov) paydo bo`ldi. O`zbekiston tasviriy san`ati rivojida buyuk rassom R.Chorievning o`rni katta. Uning “Amirlikning smirilishi ” asari muhim bosqich hisoblanadi. Unda rassom puxta kompozitsion echim asosida qalamchizgi tasvirlarda yuksak san`atkorlik mahoratini namoyon qila olgan. J.Umarbekov 1960-80-yillarda Alisher Navoiy, Kamoliddin Bexzod va Sulton

Husayn Bayqaro obrazlarini, keyinchalik “reproduksionizm” ning ayrim tasvirlari ko`ringan “Men insonman” mahobatli kompozitsiyasini va “Oqil inson” asarlarini yaratadi. Ularda Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Leonardo da Vinchi, eynshteyn kabi SHarq va G`arb ilm-fani, madaniyatining mashhur namoyandalari obrazini gavdalantirgan.

1970-yillarda B.Jalolov, J.Umarbekov jahon tasviriy san`ati va madaniyatida erishilgan yutuqlar, mavjud uslubiy yo`nalishlari ijodiy o`zlashtirib, voqealikni o`z tasavvuri asosida ifodalashga intilgan. A.Mirzaev, S.Abdullaev, SH.Abdurashidov ham shu davrda o`zbek rangtasvir san`atiga o`ziga xos uslubiy yo`nalishlar, yangicha mavzular olib kiradilar. M.Taxtaev, Y.Tursunnazarov, T.Pirmatov o`z ijodlarida o`lkamizga xos milliy koloritni, xalqning milliy ruhini ifodalovchi manzaralarni turlicha uslublarda ask ettiradilar. Ushbu rassomlar syurrealist, avangard rassomlar uslubini ijodiy talqin etgan holda davr muommolarini ask ettiruvchi, fojsiy va kinoyaviy yo`nalishdagi asarlar yaratishgan. Ularning asarlarida insonning turli holat va kechinmalari gavdalantirilib, hayoliy tasavvur bilan yonma-yon qo`yiladi va ularga nisbatan munosabat uyg`otishga harakat qilinadi.

1980-yillarda tasviriy san`atning janrlarida hayotni metaforik obrazlar orqali yangicha shakl va mazmunda gavdalantirgan asarlar yaratilgan. O`zbekiston tasviriy san`atida ham V.Oxunov, S.Alibekov va birinchi o`zbek syurrealisti M.Taxtaev huddi shunday asarlar yaratib, ijod qilgan rassom hisoblanadi. Bu rassomlarning har biri o`ziga hos tasviriy ifoda uslublari orqali dastgohli rangtasvirning yangicha ifoda imkoniyatlarini namoyish etishib, asarlarida O`zbekiston tabiati, uning kishilari hayotining tasirchan manzaralarini gavdalantirishadi. Ularning yangicha uslubdagi ushbu asarlari tomoshabinlar e`tiborini tortadi.

V.Oxunov asarlarida Farg`ona vodiysining o`ziga xos tabiati, kishilarning hayot tarzi neofuturistik usluba turli ramz –shiorlar asosida yorqin badiiylilik aks ettirilgan. SHu boisdan ular tomoshabinlarda yangicha his tuyg`ular uyg`otadi. V.Oxunov G`arbiy Evropa mamlakatlariga borganida u erdagi

installyatsiyalarga qiziq qoladi va O'zbekistonda birinchilardan bo'lib, u san'atning ushbu yangi yo'nalishida asarlar yaratadi. K.Malevich o'zining mashhur "Qora kvadrat" asarida mumtoz rangtasvir prinsiplarini qat'iyan inkor etgan bo'lsada, lekin u ushbu asarida ham dastgohli kartina "qolip" I (yani ramka ichida, moybo'yoq bilan xolstda) va tasviriy san'atning ifoda vositalaridan foydalanilgan. Hozirgi rassomlarimiz tomonidan yaratilayotgan asarlarda milliyligimiz yaqqol ko'rinib turadi.

Shubhasis, XX asr O'zbek tasviriy san'ati uning an'anaviy amaliy bezatuvchilik san'ati bilan uyg'un holda rivojlandi. Xalq ustalari asrlar davomida asrab-avaylanib kelingan milliy san'atimiznga qaytadan hayot baxsh etishib, uni yangidan-yangi jilolar bilan rivojlantirdilar.

XX asrniig boshlarida diplomat amaldor A. Polovsev Toshkentda yashardi. U sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. Shuning uchuy u o'ziga yevropacha uy qurdirdi. Bino baland aydon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A. Polovsev o'zbek xalqi san'atini yaxshi biladigan etnograf M. S. Andreyevni bezak ishlariga boshliq qilib tayinlaydi. U o'zbek xalqi san'ati namunalarini yig'ib, ularni o'rganishga hayotini baxshida etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari Qo'qon, Buxoro, Farg'ona va boshqa shaharlardan ganch o'ymakorlar, yog'och o'ymakorlari va naqqoshlar taklif qilindi.

Shular jumlasidan Usta Shirin Murodov, Usta Arslochqul Nazarov, Usta Usmon Ikromov, Toshpo'lat Arslonqulov va boshqa ganch o'ymakorlar ham bor edi. M. S. Andreyev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi Toshkent ustalariga ayvon, mehmonxonaning sharqiy va shimoliy devorlari, tokcha, g'arbiy va janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi. 1902— 1903 yillarda yevropacha qurilgan uy uzbek millim bezagida pardoz qilindi. Binoning ayvon, katta zali va yotoqxonasi juda jimjimador qilib bezatilgan. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarining ishlari o'ziga xos xarakterda bo'lib, o'yma naqsh kompozitsiyasida katta shoh- barg va to'pbarglar yirik jimjimador qilib bezatilgan. Bu yerda pardozning hamma turlari qo'llanilgan. Devorlarga o'yilgan ganch o'ymakor namoyonlar vertikal hamda gorizonta joylashtirilgan, atrofi geometrik,

mayda ensiz zanjira, islimi hoshiya naqshlar bilan bezatilgan. Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab o'sayotgan tabiat o'simliklarini eslatadi. Pardoiz turlari xonaga tushayotgan yorug'lik hisobiga juda o'rinli tanlangan. Derazadan tushgan yorug'lik o'ymani yanada badiiylashtirgan. Namoyonga nazar tashlab turgan kishi xox, uzoqdan, xoh yaqindan qaramasin, u o'ziga xos jozibaga ega ekanligini ko'radi. Albatta, ustalar bularni avvaldan hisobga olganlar. Namoyonlar xuddi go'zal tabiat manzarasining nafis tasvirini eslatadi. O'yma ganch zaminlari ajoyib ranglarda berilgan. Bu bino XX asrni boshlaridagi eng ko'zga ko'ringan arxitektura yodgorligi bo'lib qoldi. 1913—1914 yillarda Buxoroda amir Ahadxon tomonidan Sitorai Moxi-Xosa qurildi. U ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mehmonxona bezaklari o'sha davrdagi ganch o'ymakorligining ajoyib namunasi desa bo'ladi.

Bunda oyna zaminida ganch o'ymakorligi bajarilgan. U o'zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan. U o'sha davrda eng ko'zga ko'ringan ganchkor ustalardan edi.

O'zbekistonda osori otiqalarni saqlash muassasalari Samkomstaris, Turkkomstaris, Sredazkomstaris, Uzkomstaris yodgorliklarni hisobga olish, o'rganish ta'mirlash bo'yicha katta ishlarni boshlab yubordi. Toshkentda 1947 yilda g'alabaga bag'ishlab me'mor A. Muxamedshin boshchiligidagi Kurant binosi qurildi. Bu qurilishni bezashda Usta Shirin Murodov qatnashdi. U naqsh kompozitsiyalarini yuqori badiiylilik bilan o'yib bajardi.

Ganch o'ymakorlik ishlari butun bino arxitekturasiga juda moye tanlangan. Kurant binosining sharaftari, ustunlari, panjaralari o'yma ganch bilan bezaldi. Sharafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. Teatrning mutaffakkirning nomi berildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablarga asoslanib uzbek milliy an'analarini saqlagan holda xalq hunarmand-ustalari bunyod etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaharlardan ustalar, naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshtaroshlar va boshqalar kelishdi.

Qadimda odamlar yashayotgan maskanlariga, devor-u toshlarga ov jarayonlari, jang-u jadallar, bazmlar, tantanali marosimlarni aks ettirganlar. Jumladan,

Afrosiyob, Varahshi, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlari shundan dalolat beradi. Keyinchalik, ayrim sabablarga ko'ra tirik mavjudotni aks ettirish taqiqlab qo'yilgan. Shuning uchun tasviriy san'at o'rnini o'simliksimon, geometrik naqshli bezaklar egalladi.

Rang-barang, o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o'zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustuvordir. Otabobolamiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar.

Qadimdan xalq amaliy san'ati maktablari mavjud bo'lgan bo'lsa, tasviriy san'atni ham o'qitila boshlagan.

O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitish asosan XX asrdan boshlangan.

Bular haqida A.Navoiyning o'ziga ustoz deb bilgan Sodiqbek Afshor Miniaturachi rassom bo'lgan xolda, u o'zining "Qonun as suvar", Qozi Ahmadning "Hattot va Musavvirlar haqida" yozgan risolalarida XVI-XVII asr O'rta Osiyo rassomchiligi san'ati haqida ma'lumotlar berishi bilan birga, rassomchilikni o'rgatish borasida ham o'z qarashlarini bayon etadi.³

O'rta asrlarda K.Behzod atoqli rassom Mirak Naqqosh maktabida o'qigani, Mirak Naqqosh esa Shohruх Mirzo zamonida yashagan ustoz mavlono Valiullo maktabida tehsil ko'rgan degan tahminlar ham bor. Lekin Mirak Naqqoshning ustozlari Movorounnahrlik iste'dodli ustoz naqqosh Jahongir bo'lgan deyiladi.⁴

Bulardan shu narsa ma'lum bo'lai-ki, O'rta Osiyo va Xuroson Tasviriy san'ati maktablarini shakllantirishda va rivojlantirishda O'zbekistonning rassomchilik maktablarini o'rni juda katta.

Bezak naqsh nafis san'ati amaliy san'atining bir turidir. San'atning bu turi kishilarning kundalik hayotida ishlatiladigan buyumlarni yaratilishi bilan uzviy bog'liq. Sobiq SSR davri amaliy san'ati amaliy san'ati ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega. U xalqda estetik did tarbiyalashga, go'zallikni, badiiylilikni tushinishga xizmat qiladi.

O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishdan otabobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda. Milliy naqshlarimiz g'oyatda mazmunga ega.

1990 – yillar rangtasvir san'ati o'tish davriga mos bo'lgan turli-tuman uslublar ko'lamining kengligi bilan farqlanadi. Bu ko'lamda akademak realizm, dekoratizm va milliy – romantizm (ko'p hollarda miniatyura talqini ohanglarida)

³ Манба П.Зоҳидов. Меъмор санъати. Т. 1978 й.(32-бет) олинди.

⁴ О.Усманов. Камолитдин Бехзод ва унинг наққошлик мактаби. Т. 1977 й. (35-бет).

qiyofasiz rangtasvir, instalyasiya echimi tarzidagi avangardizm yonma – yon mavjuddir. Bu ko'p jihatdan ijodiy dunyoqarashning kengayishi va teranlashuvi, mualliflarning belgilangan qoliplar chegarasidan chiqishga intilishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston davlati – beqiyos badiiy meros vorisidir. Ayniqsa, o'zbek xalqining betakror iste'dodi, ya'ni tasviriy san'atda badiiy jarayon bir muncha shiddatli va serharakat kechdi. 1990- yillarda bo'lib o'tgan ko'p sonli ko'rgazmalar shuni tasdiqlaydiki, mazkur davr rangtasviri uslub va kompozitsion echimning turli-tumanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu esa tasviriy san'at ustalariga ijodiy erkinlik, shuningdek badiiy tasvirni akslantirishda shakl va vositalarni mustaqil tanlash imkonini yaratuvchi yangi davrga ko'p jihatdan bog'liqdir. Oxirgi o'n yillar davomida xorijda va respublikada o'tkazilayotgan ko'p sonli guruhiiy va shaxsiy ko'rgazmalarning katta qismi an'anaviy tarzda dastgohli rangtasvir asarlaridan tashkil etildi. Mustaqillik yillarida o'z navbatida ustivor, ya'ni rassomlar ijodining hisoboti tarzida uyushtirilgan ko'rgazmalar muhim o'rin egalladi. Mamalakatimiz mustaqillik kuniga bag'ishlangan doimiy o'tkazilib kelinayotgan ko'rgazma bu borada eng etakchi bo'lib kelmoqda. Bu ko'rgazmada respublika miqyosida tasviriy va amaliy san'atning barcha turlarida yo'zaga kelgan etuk va namunali asarlar namoyish etilib, uning asosiy qismini esa rantasvir asarlari tashkil etdi.

Naqqoshlik – o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng jozibali va nafis to'rlaridan biridir! Binobarin xalq amaliy san'atining barcha turlarini naqsh elementlarisiz tasavvur etish qiyin. Naqsh – gul, bezak degan ma'noni anglatib, amaliy san'at asarlariga chiroy bag'ishlaydi. Bunday bezak elementlari esa, tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, xayvonlar tasviri va koinot jismlarining eng sodda ko'rinishlari orqali aks ettiriladi.

Naqqoshlik, naqshkorlik — amaliy san'atning qadimgi sohasi; naqsh yaratish kasbi. Naqqosh usta qog'ozga yoki matoga naqsh mujassamotini yoki naqsh taqsimini chizib oladi (ayniqsa, girih va islmiy kabi murakkab naqshlarda), axta, andoza tayyorlaydi. Amaliy san'at ustalari 2 xil usulda bezak yaratadilar: naqqoshlar tayyorlagan axta, andoza yordamida hamda naqsh (gul) to'g'ridan-to'g'ri bezash jarayoni-daustalar tasavvurining mahsuli sifatida yaratiladi. **Naqqoshlik**da naqsh, bezakni malakali naqqosh ustalar chizib beradilar, bunday

naqshlarni me'morlik, gilamchilik, kashtado'zlik, kandakorlik va boshqa dagi naqsh mujassamotlarida birday uchratish mumkin. Naqsh yaratish ustadan did, mahoratdan tashqari qunt, uzoq mashq-malaka talab qiladi. Naqqoshlar o'tmishda xalq ustalarining eng bilim-don, iste'dodli qismini tashkil etgan, ular ustodlarda ta'lim olgan, turli fanlar (adabiyot, musiqa, tarix, kimyo, matematika)ni yaxshi bilgan.

O'rta Osiyo hududidagi me'moriy yod-gorliklar, arxeologik qazilmalar naqqoshlikning bu yerda qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Amaliy bezak san'ati turlari (kulollik, miskarlik, zargarlik, gilamchilik, kashtado'zlik, kandakorlik va boshqalar) hamda me'morlikning taraqqiyoti naqqoshlikning ham rivojini taqozo etdi. Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Ko'hna Urganch, qad. Termiz, Ayritom, Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan turli xil uslubdagi naqsh namunalarining jozibadorligi ajdodlarning yuksak madaniyatidan darak beradi. Naqqoshlik, ayniqsa, o'rta asrlarda (9—12, 14—15, 18—19-asrlar)da keng tarqaldi. Kito-bat san'atida qo'lyozmalarni mo'ljaz asarlar bilan bezashda naqqoshlik, musavvirlik asosiy o'rin tutadi; me'morlikda naqshlarni qo'llash, ayniqsa, taraqqiy etib, o'z qonunqoidalari hamda uslublari, o'ziga xos ranglar uyg'unligiga va mustaqil mujassamotlariga ega bo'lgan.

O'zbekistonning turli viloyatlaridagi me'moriy yodgorliklar, idish, buyum, mehnat qurollaridagi naqshlarda umumiylik ko'zga tashlansada, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Toshkent va boshqa joylarda shu yerlarning o'ziga xos naqsh uslublari vujudga kelgan. Naqqoshlik avloddan-avlodga o'tgan, shogirdlar ustozlaridan o'rgangan naqsh namunalarini iste'dodlari darajasida boyitib borganlar, naqqoshlikni rivojlantirganlar. O'zbekiston hududi (turli mintaqalari)da o'ziga xos bo'lgan naqqoshlik maktablari shakllangan. Shunga ko'ra, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysi, Toshkent naqqoshliki ayrim o'ziga xos xususiyatlari bilan birbiridan farqlanadi. 20-asr o'rtalaridan naqqoshlik bezak mujassamotlariga tasvirlar (me'moriy obi-dalar, kishilar portretlari va boshqalar) ham kiritila boshlandi. Jumladan, kandakori buyumlar bezagida me'moriy obi-dalar, chinni buyumlar bezagida esa atoqli kishilarning portretlari va boshqa o'z ifodasini topdi.

20-asr 90-yillaridan naqqoshlik ustalari ijodiy markaz va uyushmalarga birlashgan holda ijod qilmoqda. "Us to" "Musavvir", "Hunarmand" ustalari ijodi diqqatga sazovor. naqqoshlik keng taraqqiy etgan bo'lib, ustalar yangi qurilayotgan inshootlarda hamda madaniy yodgorliklarning ta'mirida faol ishtirok etmoqda. Bevosita ularning ishtirokida "Oqsaroy" qarorgohi, Oliy Majlis binosi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, "Turkiston" konsert zali, O'zbekiston konservatoriyasi binolari bezalgan. Ushbu naqqoshlardan M. To'rayev, A. Ilhomov, S. Mahmudov, Q. Shoislomov, H. Nuraliyev, S. Shukurov va boshqa naqqoshlik rivojiga katta hissa qo'shdilar. Naqqoshlik buyumlari bilan ustalar xorij ko'rgazmalarida qam faol qatnashadi.

Malakali naqqosh ustalar qadimdan usta-shogird usulida tayyorlangan. Hozirgi kunda ham shu usulda naqqosh ustalar tayyorlash saqlangan, shuningdek, maxsus

bilim yurtlari, kollejlarda, ba-diiy markazlarda N. bo'yicha ham muta-xassislar tayyorlanadi.

Bizgacha yetib kelgan, xalqlarimizning axalq amaliy bezak san'at turlari ichida naqqoshlik alohida o'ringa ega. Avvalo naqsh nima va u qayerlarda, nimalarda uchrashi haqida ta'rifini bilishimingiz kerak. Naqshlar asosan biron bir buyumni bezatishda ishlatiladi.

Naqqoshlik san'ati qadim qadimdan mashxur va insonning moddiy muxitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qilib kelgan. Xalq ustalari tomonidan jilolangan me'moriy obidalar, turar joy va ro'zg'or buyumlari go'zallikni idrok etishimiz, ma'naviyatimiz va o'zligimizni chuqurroq anglashimiz borasida bebahodir.

Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi.

Farzandlariga yoshlik chog'laridan hunar o'rgatib kelgan xalqimiz o'zining an'analaridan, urf-odatlaridan, turli ma'naviy meroslaridan unumli foydalanib keladi.

O'zbekiston hududidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'x, Baqtrya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi fayoztepa, Dalvarzintepa budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berdilar.

Bugungi kunimizda ham xalqimizning an'analarini, usta va shogird asosida yoshlarimizga hunar o'rgatishga katta e'tibor berilmoqda.

Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarini, turli san'at akademik litsey va kasb-xunar kollejlarda yoshlarning kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish, ularni mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni berish uchun samarali mehnat qilinmoqda. Shuningdek, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va uni yanada yuksaltirish yo'lida ta'lim-tarbiya tizimini yuksaltirish muxim ahamiyatga egadir.

Naqqoshlik san'ati ham hunar, ham san'atdir. Bu va bu kabi san'at turlarini egallash yoshlarning badiiy madaniyatini, tafakkurini, dunyoqarashi va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Naqqoshlik san'ati asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ko'z qorachig'iday asrab-avaylab kelindi va kelinmoqda. Hozirgi yosh avlod uni qabul qilib olarkan, o'z oldida turgan mas'uliyatni bir daqiqa ham unutmasligi lozim.

“Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san'atining yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida”gi Prezidentining

Farmoni bir necha muxim, dolzarb masalalarni o'z ichiga olishi bilan birgalikda - ta'lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini parpo qilish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Bugungi kunimizda amaliy san'at ustalarining yangi avlodlarini tarbiyalash, ularning barkamollikka erishishlari yo'lida barcha sharoitlar mavjud.

2.O`ZBEKISTONDA NAQQOSHLIK MAKTABLARINI O`ZIGA XOSLIGI.

Xiva, Qo`qon, Buxoro xonliklari davrida xalq amaliy san`ati ustalari shu shaharlarga yig`ila boshladilar. XIX asr arxitektura yodgorliklarni kuzatsak, ular bir xil uslubda yaratilganligini ko`ramiz. Chunki o`sha vaqtlari naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo`yicha boshqa shaharlarga borib binolarni bezatar edilar. Ko`pincha Farg`ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo`qon, Marg`ilon ustalari Toshkentga kelib ko`pgina binolarni bezatar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga o`ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda kata rol o`ynadi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o`xshasa-da har bir shahar va har bir ustaning o`ziga xos rang majmuasi, koloriti, uslubi, kompozitsiyasi jihatidan farq qiladi. Agar biz XX asr orasida yaratilgan ishlangan naqshlarni kuzatsak, har bir rayon va biloyatning o`ziga xos naqqoshlik maktablari yaratilganligini ko`ramiz.

Boshlab naqqoshlik maktablari yaralishiga o`z xissalarini qo`shgan usta rassomlarimiz Komoliddin Behzod, Oqa Mirak, Shayhzoda Mahmud, Xudobergan Muhhrkan kabi xattot, naqqoshlarimiz o`z maktablarini yaratgan.

O`zbekiston naqqoshlik maktablarini quyidagilarga bo`lamiz:

Toshkent naqqoshlik maktabi.

Toshkent naqshlari o`zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o`tishi, aniq bir koloritga qat'iy rioya qilinishi, geometrik va o'simliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko'pincha yashil gammada ishlanadi. Islimiy naqshlarda oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq stillashtirilgan murakkab garih naqshlari ham keng qo'llanilgan.

Naqqosh ustalardan Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Jalil Xakimov, Toir To'xtaxo'jayev, Zokir Bositxonov, Maxmud To'rayev, Anvar Ilhomov, Komil Karimov, va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabi asoschilaridirlar.

Yo.Raufov tojik naqqoshlik maktabining ananalarini saqlagan holda ajoyib kompozitsiyalar yaratgan. Ijodkor o'zbek-tojik naqshlarining boy madaniy merosidan mohirona foydalanib, ko'pgina islmiy va geometrik naqsh kompozitsiyalarini yaratdi. Uning naqshlari ranglarining yorqinligi hamda bir-

biriga uyg'unligi bilan ajralib turadi. U o'z kompozisiyalarida yangi-yangi elementlarni kashf etgan. Yo.Raufov naqshlarni bo'rttirib, kundal texnikasidan ham foydalandi. T.To'xtaxo'jayev murakkab uslubdagi naqsh kompozisiyalarini tuza olgan. Ustaning oltinsimon-jigarrang koloritdagi naqshi Toshkent naqqoshlik maktabining rivojlanishida qo'yilgan yangi bir qadam bo'ldi.

Usta muzeylar, turarjoy va jamoat binolari, madaniyat uylariga sayqal berdi. U arxitektura yodgorliklaridagi naqishlarga qayta jon bag'ishladi. Birinchi vaqtlarda Tojikistonda, keyinchalik esa 1923-yilda Toshkentga ko'chib kelgan Yoqubjon Raupov naqqoshlik sirlarini to'la tekis egallagan va naqqosh nomini olgan mustaqil usta edi. U Toshkent xonadonlarida ishlash bilan birga amalda qo'llaniladigan uy ro'zg'orbuyumlariga, ya'ni qutichalar, ko'p raxtli xontaxta, kursi, qalamdon, stol va boshqa uy ro'g'or buyumlariga naqsh chizgan. Natijada san'atkorning bunday san'at asarlari har xil ko'rgazmalarda namoyish qilindi, usta naqqosh san'atkorning nomi Respublikamizda hurmat bilan tilgaolina boshlandi.

1938-yilda sermehnat harakatchan usta Moskva shahriga butunittifoq xalq xo'jaligi ko'rgazmasining O'zbekiston pavilyonini bezash uchun ketayotganda bir guruppa naqqoshlarga rahbar qilib tayinlandi. Bezak ishlari dastlab 1938-39-yillarda keyin esa 1952-56-yillarda nihoyasiga yetqazildi. Sirkorlik ishlarini 18 kishidan iborat ustalar bilan jamoasi uch oy davomida ishlab bitqazdilar. Bu ishda, ayniqsa, naqqoshlardan Y. Raupov, A.Qosimjonov, V.Isayev, X.Husanov va boshqalar alohida o'rnak ko'rsatishdi. Ular xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasining O'zbekiston pavilyonida gumbazni, shiypon, ayvon va boshqa joylarni ajoyib naqshlari bilan bezadilar.

O'zbek naqqoshlik maktabini rivojlantirishda samarali hissa qo'shgan Olimjon Qosimjonovning talantli shogirdi, naqqoshlik bo'yicha o'ziga xos maktab yaratgan, juda ko'p shogirdlarning ustози - O'zbekiston xalq rassomi Jalil Xakimovdir. Ota-bobolarimizni qadimdan yaratib kelgan naqshlarini qayta tiklashda ustaning xizmatlari kattadir. J.Xakimovning naqshlarini e'tibor berib kuzatsak, undagi naqshlar elementlarga boyligi, aniq, rovonligi, yorqin yashil koloritda bo'lishi bilan ajralib turadi. U gulli girih kompozisiyalarini juda ko'p ishlagan. J.Xakimov o'zbek milliy naqqoshlik san'ati an'alarini puxta egallagan, uni samarali davom ettirgan san'atkordir. Usta naqshlagan xontaxta, kursi, quticha va boshqa buyumlar dunyoning ko'pgina davlatlarida yuqori baholangan. Uning ijodi Sharq an'analari ruhida rivojlandi, tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Farg'ona naqqoshlik maktabi.

Farg'ona naqshi Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo'lgan naqshlar ko'plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo'qondagi Madalixon dahasi va Dahai Shohon, Xudoyorxon o'rdasidagi va boshqa naqshlar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lsada, Farg'ona

naqshlarida ko‘proq Buxoro, Xiva naqshlarining ta’siri bor. Hattoki rus naqqoshlarining uslubi ham undamunda uchrab turadi. Chunki o‘sha vaqtlarda usta naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo‘yicha boshqa shaharlarga borib, naqsh bilan binolarni bezatar edilar. Lekin Farg‘ona vodiysida o‘ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj toptan edi. Farg‘ona naqqoshlari girix, o‘simliksimon (islmiy) va gulli girix naqshlarini bezaklarda qo‘llaganlar. Kompozitsiyalarning simmetriyali bo‘lish prinsipiga amal qilganlar. U boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarining tabiatga juda yaqinligi, erkin ishlanishi, ranglarining kontrastligi bilan farqlangan. Bulardan tashqari Farg‘ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g‘uncha va boshqalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanilgan. Chunonchi Farg‘ona naqshlariga qarasak, pista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona vodiylaridagi naqsh kompozitsiyalarning tabiatga juda yaqinligi Toshkent, Xiva va Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg‘onada naqqoshlar chetlari chiroyli qilib, ichiga islmiy shakl tushirilgan qizil, yashil bo‘yoqlar bilam turunjni afzal ko‘radi. Farg‘ona naqqoshlik maktabining na-moyandalaridan biri Saidmahmud Norqo‘ziyevdir. Bu maktab haqida dissertatsiyamni ikkinchi bobida keng yoritilgan.

Xiva naqqoshlik maktabi

Xiva naqshlari umuman madoxili naqshlar asosida tuziladi. Keyin esa islmiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshchilik mak-tabining namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro‘-zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar.

Buxoro naqqoshlik maktabi.

Buxoro naqshi hamma naqshlardan naqsh kompozitsiyalarining murakkabligi, mukammalligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihlar aniq, puxta o‘lchamda ishla-tilishi o‘simliksimon naqshlarning o‘ziga xos san‘at bilan ishlangani naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e’tibor berilishi bilan farqlanadi.

Samarqand naqqoshlik maktabi

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg‘ona naqshlariga o‘xshab ketadi. Samarqand naqshlari o‘ta guldorligi barg va gullarining badiiy harakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girihlar, Farg‘ona naqshlariga o‘simliksimon naqshlari bilan aniq bir ritmik tak-rorlanuvchan naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o‘xshash. Avval zangori rang gammasida ko‘p naqsh bajarilgan bo‘lsa, hozir esa yashil rang gammasida ko‘proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda «Usta Rahmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol),

usta Mahmud, usta Abdujabbor, usta Abduzohid, usta Sharif, usta Aminjonlar katta xizmatlar qilganlar.

O'zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz o'z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzildi. 1918 yili 5 dekabrda qadimiy arxitektura yodgorliklarini va san'at asarlarini hisobga olish va saqlash haqida dekret chiqarildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar. 30-yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylarni va boshqa joylarni yog'och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1938 yili Moskvadagi Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi O'zbekistan restorani va pavilonlarini bezashga naqqoshlarni safarbar qilindi. U yerda ajoyib namoyonlar, qandillar; o'yma eshiklar, o'yma ganchlar va naqshlar bilan bezatildi. 1939 yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshiustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. Shu yillari «Baxor» kontsert zalini ham naqsh, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. 40-yillarda qurilgan Muqimiy, Navoiy teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan bezatildi. Naqqoshlik san'atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg'onalik Saidmaxmud Norquziyev, toshkentlik Toxir To'xtaxo'jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov. Jalil Xakimov, Xivalik Abdulla Boltayev, S. Xudoyberganov, X. Raximov, Samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Xusanov va boshqalar hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyapti. Ular avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan naqqoshlik san'atiga katta xissa qo'shdilar. Ular o'zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (o'roq va bolta, kabutar, paxta, yulduz va boshqalar) yangicha g'oyalar kiritdilar. Lekin o'zimizning an'anaviy o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o'zbek milliy naqsh elementlari bo'lmish nozik majnuntol nixollari, anor bo'togi, guli butalar va boshqa o'simliklarni tasvirladilar. XX asrning urtalarida naqqoshlik san'ati yanada rivoj

topdi. Devorlarga manzarali monumental tasvirning mashxur ustasi Chingiz Axmarov Sharq miniatyurasining eng yaxshi namunalaridan hamda O'rta Osiyo xalqlarining badiiy merosidan ilxomlanib ajoyib devoriy rasmlar yaratdi. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san'atining shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o'zlarining yuksak badiiy maxorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni xayratga solmoqdalar. Naqqoshlik san'ati O'rta Osiyoda juda qadimiy bo'lishi bilan birga, ajib, o'ziga xos, betakror namunalari bilan ajralib turadi. Har bir naqshning tashqi ko'rinishini ifodalovchi ajib bir gullari, yaproq, novda, islimi, girixi kabilar bilan birga chuqur ichki ma'nosi bor. Bunda har bir shakl aniq o'lchamda, hamohang bo'lishi, ranglar did bilan o'zaro mutanosib tanlanishi kerak. Ma'lumki, O'rta Osiyoga islom dinini kirib kelishi bilan joriy etilgan jonli mavjudot tasvirini ishlashning man qilinishi tasviriy san'atni rangtasvir, haykaltaroshlik kabi turlarini rivojlanishiga to'sqinlik qilgan, biroq, xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik san'ati keng taraqqiy etishiga ham katta turtki bo'lgan. Binolar, turli idish-tovoqlar, buyumlar, qurol-aslahalar naqsh bilan bezatildi. Shaharlar husniga ko'rk bo'lgan qadimiy obidalar, masjid, madrasalar, xonoqo va maqbaralar naqsh bilan bezatildi, ganch va yog'och o'ymakorligi keng ko'lamda qo'llanildi. Ana shunday milliy san'atimiz bo'lgan xalq amaliy san'atining bizgacha etib kelishi va rivojlanishida mashhur ustalar Usta Shirin Murodov, Yusufali Musaev, Umrzoq Ahmedov, Ota Polvonovlarning hissalarini beqiyosdir. Farg'ona naqqoshlik maktabi nomi bilan tilga olinadigan Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublarda ijod qilgan ustazoda Saidaxmad Norqo'zievni ham alohida ta'kidlash joizdir. Bugungi kun yoshlari ularning ishlarini sadoqat, ixlos, mehr-muhabbat bilan o'rganmoqdalar.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi barg va gullarining badiiy xarakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girixlar, Farg'ona naqshlariga o'simliksimon

naqshlari bilan aniq bir ritmik takrorlanuvchan naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o'xshash. Avval zangori rang gammasida ko'p naqsh bajarilgan bo'lsa. Hozir esa yashil rang gammasida ko'proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda «Usta Raxmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol), usta Maxmud, usta Abdujabbor, usta Abduzoxid, usta Sharif, usta Aminjon, usta Bako» keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi naqqoshlar asos soldilar va bebaxo xissalarini qo'shdilar.

Muxammad Murod Samarqandiy 1616 yilda Buxoroda bo'lgan. U Sa'diyning «Buston» asariga miniatyura chizgan. So'ng bu asar Juybor shayxlaridan Abduraxim Xo'jaga tuxfa qilingan. O'rta asr o'zbek miniatyura san'atining yana bir ko'zga ko'ringan taniqli musavviri Muxammad Murod Samarqandiy o'zining g'oyat kuchli tasviriy qobiliyati, asarlarni jonli, ifodali realligi bilan ajralib turadi. «Shoxnoma» asarida uning 115 illyustratsiya miniatyurasi uning o'z davrining yetuk san'atkori ekanligidan dalolat beradi. U qoyat kuchli dramatik syujetlarni o'z asarlarida ifoda etadi. Asarlarida o'z davrining sosial xayoti to'laqonli ifoda etib berilgan. Uning «qo'zg'olon» asarini kuzatar ekanmiz asar qaxramonlarini g'oyat aniq tashvishli, g'azabkor va jonli ifoda etganligini kuzatamiz. Asardagi ranglar ham o'ziga xos qo'zg'olish ruhida beriladi. Murodni rang tanlashi ham o'zidan avvalgi musavvirlardan boshqacharoq kompozitsiya syujetlari va ularga tanlangan ranglarda alohidalik reallik xukm suradi. Murod Samarqandiy - mashhur naqqosh va mashhur atoqli musavvir. Murod Samarqandiy XVI asrda yashab ijod etgan rassom. Murod Samarqandiyning otasining ismi haqida ham hech qayerda hech nima berilmagan. Murod Samarqandiyni ayrim sharqshunos olimlar uni tug'ilgan va vafot etgan yilini aniq ko'rsatib bermaganlar. Murod Samarqandiy juda yoshligidanoq rasm chizishga kirishadi. U rasm chizishni eng oddiy elementlarini katta zehn bilan o'rganadi. Yosh Murod tabiat elementlaridan o'z rasmlari kompozitsiyasida foydalanishga, badiiy asarlar syujeti bo'yicha rasm ishlashga asosiy e'tiborni qaratadi. U birgina rasm chizib qolmay badiiy asarlarni ham mutoala qilib turar edi. Ko'pgina manbalarda ko'rsatilishicha u davrda Xirotda Alisher Navoiy boshchiligida 40 a'zoga ega bo'lgan yetuk rassomlar xattotlar, me'morlar, musiqashunoslardan tashkil topgan «Ilmiy kengash» faoliyat ko'rsatar edi. Shu bilan birga Mirak Naqqosh rahbarligida «Nigoriston» san'at akademiyasi ham bu davr san'ati va madaniyati rivojida muhim o'rin tutgan holda Murod Samarqandiy ijodining ravnaqida ham katta ta'siri bo'lganligini ham aytib o'tishimiz joizdir. U Xusayn Boyqaro hamda Oqa Mirakdan ta'lim olgan. Uning Xirotda yashagan chog'idagi asarlari bizgacha yetib kelmagan. XVI asr 30-40 yillarida chizgan suratlarida 30 yaqini kashf etilgan. U xamma miniatyurachilar

kabi shoir va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy suratini ham chizgan. Mir Alisher Navoiy chexrası to`qri tasvir etilgan bo`lib chikadi. Chunki Murod Samarqandiy ham Bexzod singari shoir mir Alisher Navoiy bilan birga bo`lgan. Mazkur surat 1931 yili Londonda tashkil etilgan Eron san'ati ko`rgazmasida namoyish etilgan edi. Xozir Texronda shoxanshox kutubxonasida saqlanadi. Biz Mir Alisher Navoiy suratini ko`zdan kechirar ekanmiz, u usta san'at egasi tomonidan chizilganligiga shubxa qilmaydi. U shoirning yuksak choqlarini tasvirlab, chehrasi ancha manodor chizilganligini aniq namoyon etib turibdi. Uning ko`zlari risolidek, kimnidir diqqat bilan, bor fikri zikri bilan tinglayotgandek tuyulardi. Surat yuqorisida «Sur'atıy Amiri Kabir Mir Alisher» degan yozuv bor.

Farg'ona naqshi Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chuyet, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo'lgan naqshlar ko'plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo'qondagi Madalixon daxasi va Dahai Shohon, Xudoyorxon o'rdasidagi va boshqa naqshlar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lsa-da Farg'ona naqshlarida ko'proq Buxoro. Xiva naqshlarining ta'siri bor. Xattoki rus naqqoshlarining uslubi ham unda-munda uchrab turadi.

Lekin Farg'ona vodiysida o'ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj topgan edi. Farg'ona naqqoshlari girih, o'simliksimon (islmiy) va gulli girih naqshlarini bezaklarda qo'llaganlar. Kompozisiyalarning simmetriyali bo'lish prinsipiga amal qilganlar. U boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarining tabiatga juda yaqinligi, erkin ishlanishi, ranglarining kontrastligi bilan farqlangan. Bulardan tashqari Farg'ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g'uncha va boshqalardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanilgan. Chunonchi Farg'ona naqshlariga qarasak, lista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiylaridagi naqsh kompozisiyalarning tabiatga juda yaqinligi Toshkent, Xiva va Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg'onada naqqoshlar chetlari chiroyli qilib, ichiga islmiy shakl tushurilgan kompozisiyalarini yaratdi. Uning naqshlaridagi ranglarning ochiqligi, yorqinligi hamda bir-biriga uyg'unligi kishini o'ziga jalb qiladi. Naqsh kompozisiyasi tuzilishi jihatidan an'anaviy milliy naqshlarga doimo yangi element va motivlar kiritgan. Yo. Raufov kompozisiya tuzishda sodda, uzoq-yaqinini yaxshi bilardi. U naqsh kompozisiyalarini uzoqdan kam ko'rinishini ta'minlar edi. Usta naqsh ishlashda ko'proq chirmoviqsimon o'suvchan islmiy mazmundagi naqshlari bilan va katta-kichik yuzalarni to'g'ri taqsimlashi hamda mayda kichik buyumlar formasiga nixoyatda uzviy ravishda birlashib ketgan odmi naqshlarning kamsuqumliligi bilan ham ajralib turadi.

Namangan (Axsikent) naqqoshlik maktabi

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Namanganda amaliy san'at turlaridan Kulolchilik muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda naqqoshlik maktabi kulolchilik san'atidan keyingi o'rin tutadi.

Asqarali Akparov Odamshoyevich- 1951-yil 2- noyabrda, O'sh viloyati Yangiyo'l tumani Karavan Qishlog'ida tavallud topgan. Mashhur naqqoshlardan biri. 2000-yilda unga O'zbekiston Respublikasi Xalq Ustasi unvoni berilgan. Asli ushbu usta Toshkent naqqoshlik maktabi ustalari Toyir To'xtaxo'jayev, Yoqubjon Raupov, Jalil Hakimov kabi ustalar bilan ishlab hunar o'rgangan bo'lsa-da, o'zining maktabini yaratishga ulgurgan ustozlardan biri. Ijodida an'anaviy naqqoshlikni rivojlantirdi, binolar bezagida naqqoshlik bilan ganch o'ymakorligini uyg'un xolda qo'lladi, unutilib ketgan kundal uslubini tikladi. Kursi, xontaxta, guldon, lagan, kabi buyumlarni nafis ranglarda bezaydi. Milliy va zamonaviy binolar bezagida islamiy va grix mujassamotidan keng foydalanadi. San'atning naqqoshlik turidan tashqari, ganchkorlik, kulolchilik, chinnisozlik, xattotlik, miniatyura va shu kabi san'at turlari bilan shug'ullanadi. Namangan, Toshkent, va boshqa, xorijda 60dan ortiq jamoat binolarini bezadi. Uning asarlari Olmoniya, Makedoniya, Armaniston, Kipr, Mo'g'uliston, Xindiston, Qozog'iston, Shvetsariya, Rossiya, va boshqa mamlakatlarda namoyish qilingan. Shaxsiy ko'rgazmasi sankt-Peterburg shahri etnografiya muzeyi va Kirov shahar ko'rgazmalarida qatnashgan.

Naqshlarning boshqa o'zbek xalq amaliy san'atida qo'llanilishi.

O'zbekistan hududidagi yog'och o'ymakorligi ibtidoiy jamoa davridayoq, yuzaga kelgan. Bular oddiy ishlari bo'lib, ulardan asta-sekin o'ziga xos gul-naqshlar yuzaga kelgan. Salgina o'yib ishlash, chiziqli o'yma, keyin esa yuzaga o'yib ishlashlar ana shular hosilasi bo'lgan. O'yma rasmlar Oqtomdagi muguz taxtachalarda, Quyi Mozordagi suyak taxtachalarda uchraydi (mil.avv. II-I asrlar). Islomgacha bo'lgan vaqtda yog'och o'ymakorligi, asosan, shaklli o'ymakorlik rivojlangan. Maxalliy aholi turli ma'budlarga sig'ingan, ularni yog'ochga o'yib ishlagan, qimmatbaho toshlar qadab bezagan va ularni eshik ustiga o'rnatib, vaqti-vaqti bilan almashtirib turganlar. Sug'd, Xorazm va Ushrushonda arablar kelgunga qadar olov ehromlari bilan bir qatorda butparastlik ehromlari ham bo'lgan (masalan, V-VI asrlardagi Zarafshon vodiysidagi butlar). O'rta Osiyoda yog'och o'ymakorligi ikki yo'nalishda - naqshli va timsolli yo'nalishda rivojlangan bo'lib,

goxo ular chatishib ketgan va badiiy teran va falsafiy ma'no yo'g'rilgan murakkab kompozision tuzilmalar yaratilgan. O'ymakorlik bilan ustunlar, eshik kesaklari, eshiklar, darvozalar, yog'och sandiq-javonlar, turmush va mehnat qurollari bezatilgan, shift yoki devorlar ko'rinishida kompozisiyalar bajarilgan. Biroq, nam tuproqli sharoitlarda yog'och ko'pga chidamasdi. Shu bois, eng qadimgi yog'och o'ymakorligi yodgorliklari bizgacha etib kelmagan, ammo ko'mirga aylangan hajmdor haykalchalarning ayrim bo'laklari, eng qadimgi uy devorlari, uylarning xarobalaridagi taxtachalar (masalan, Panjikent kompozisiyalari), dahmalardagi topildiqlar o'tmishdagi xalq, ustalarining yuksak madaniyati va mahoratidan guvohlik beradi. Badiiy yog'och o'ymakorligining o'ziga xos namunalari O'zbekiston janubidagi Yumaloqtepa madaniy qatlami ostidan topilgan (V-VI asrlar). Bu yerda bir yarim ming yil muqaddam boy badiiy yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan katta me'moriy majmua bo'lgan. O'rta Osiyo hududiga arablar bostirib kelgach hamda islom dini joriy etilgach, tasviriy san'atda asta-sekin odamlar va hayvonlar tasvirlari yo'qolib borgan. Bezak rasmlari handasaviy va islimi unsurlar asosida tuzilgan. Bunday o'ymakor naqshlarning namunalari, masalan, Shoxi Zinda taxtachalarida, shuningdek, Shayx Sayfiddin Boxarziy daxmasida topilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida badiiy o'ymakorlik yuksak darajada rivojlangan. Samarqanddagi Qusam ibn Abbos maqbarasining eshik naqshlari bag'oyat jim-jimador va nozik ishlangan. Bunday yodgorliklardagi yog'och o'ymakorligida ustalarning yuksak maxorati bilan birga, ularning badiiy didlari, xalqning hayoti va jannat haqidagi tasavvurlari o'z aksini topgan. Afsuski, yog'och o'ymakorligi nechog'li sifatli ado etilgan bo'lmasin, ularning qadimgi namunalari saqlanib qolmagan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ko'plab milliy an'analar va urf-odatlar qayta tiklandi, yodgorliklar va me'moriy majmualar barpo etildi. YOG'OCH o'ymakorligi san'atida talay ishlar qilindi, ularda mamlakatda sodir bo'layotgan yangi jarayonlar o'z aksini topdi. 1998 yilda Samarqand viloyatining Xartang qishlog'ida buyuk muhaddis Imom Muxammad ibn Ismoil

al-Buxoriyning 1255 yilligiga me'moriy yodgorlik majmuasi barpo etildi, uning bezak ishlarida "Usto" ijodiy birlashmasining amaliy bezak san'ati ustalari, shu jumladan, yog'och o'ymakorligi ustasi Jaloliddin Asadov ham ishtirok etdilar. Saroy aylanasiidagi ayvonlarning barcha taxta-yog'och ishlari A. Abdullayev rahbarligi ostida olib borildi.

Hammasi bo'lib 1000 kub metrli taxta-yog'och ishlari qilindi. Majmua uchun 75 ta o'ymakori ustun va 35 ta eshik yasaldi. Bu yerda birinchi marta allaqachon unutilib ketgan shiftdagi chuqur muqarnas qo'llandi.

Qashqadaryo viloyatining xalq an'anaviy kashtachiligi maxsus tadqiq qilinmagan, shu bois xam O'zbekistan amaliy san'atiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda deyarli yoritilmagan. 2008 yilda ilk bor o'tkazilgan madaniyatshunoslik ekspedisiyasi materiallari so'nggi 50-60 yilda Qashqadaryo hududidagi an'anaviy kashtachilik holati va rivojining o'ziga xosligini o'rganishga imkon berdi. Qashqadaryo voxasi kashtachiligining hududiy jihatlariga xolisona tavsifni har bir tuman va qishloqlarining an'anaviy hunarmandchiligini bevosita o'rganish asosida amalga oshirish mumkin.

I-bob bo'yicha xulosa;

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XX asr oxiri XXI asr boshlarida ko'plab sohalar rivoji kabi san'at sohasida ham ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlarning asosi omili albatta mustaqilligimiz sharofatidir. Chunki, katta imkoniyatlarga, yuksak e'tirof va e'tiborga, erkin ijodiy faoliyat qilishga faqatgina mustaqil yurt ijodkorlari ega bo'ladi. Bunday islohotlar esa, avvalo inson manfaatlari, uning ma'naviy olami va tafakkurining yuksalishi uchun xizmat qiladi. Aslida ham, har qanday davlatning bu kabi ma'naviy-marifiy, madaniy sohalaridagi siyosati muhim ahamiyatga ega. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining mashhur "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" nomli asarida ham, yuqoridagi fikrimga yaqin bo'lgan quyidagi gaplarni aytib o'tgan edilar: "Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng

koʻlamli islohotlarimizning samaradorligini avvalo xalq maʼnaviyatining tiklanishi, boy tarixiy meʼrosimizning chuqur oʻrganilishi, anʼana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va sanʼat, fan va taʼlim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining oʻzgarishi va yuksalishi bilan oʻzviy bogʻliqdir.⁵”

II-bob. QOʻQON NAQQOSHLIK MAKTABINING NAMOYANDALARI IJOD YOʻLI

1.QOʻQON MEʼMORIY OBIDALARIDA NAQQOSHLIK SANʼATINING AHAMIYATI

Dekorativ sanʼatning naqqoshlik va yogʻoch oʻymakorligi kabi turlari tarixiy binolarimizning ajralmas qismini tashkil etadi.

Oʻzbekiston tarixiy obidalarini Xalq amaliy bezak sanʼatisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Madaniy merosimizning qurib bitqazilishida Usta-hunarmandlarimizning xissasi va oʻrni kattadir.

Misol uchun:

Xudoyorxon saroyi — 1863-1873 yillarda barpo etilgan boʻlib, Xudoyorxon Qoʻqon xoni oʻziga saroy-qoʻrgʻon qurdiradi, u oʻrda deb nomlanib, Buxoro ravogʻiga qarama-qarshi qad rostlagan. Soʻnggi Qoʻqon xoni Xudoyorxon tomonidan qurilgan mazkur tarixiy yodgorlik dastlab 3 ta qism va 114 xonadan iborat boʻlgan. Hozirgi kunda faqatgina soʻnggi qismi va 19 ta xona saqlanib qolgan.

Minglar sulolasiga mansub boʻlgan Qoʻqon xoni (1845-1875- tanaffuslar bilan). Sheralixonning oʻgʻli. Qaynotasi Musulmonqul tomonidan taxtga oʻtqazilgan. Ammo yosh boʻlganligi tufayli amalda davlat ishlarini Musulmonqul boshqarib borgan. Eng muhim lavozimlar qipchoqlar qoʻliga oʻtadi va ular hohlaganicha beboshliklar qila boshlaganlar. Natijada ichki kursh kuchayib, 1853-yilda qipchoqlar qirgʻini boshlagan. Buning oqibatida 20 mingga yaqin qipchoqlar oʻldirilgan, Musulmonqul esa Qoʻqonda dorga osilgan. Shu yildan Xudoyorxon davlatni mustaqil idora qila boshlagan. Ammo, tajribasizligi tufayli koʻp xatolarga yoʻl qoʻygan. Bundan foydalangan akasi Mallabek taxt uchun kurashni boshlab yuborib 1858-yilda oʻzini Qoʻqon xoni deb eʼlon qilgan. Xudoyorxon Buxoroga qochishga majbur boʻlgan. 1863-yilda Buxoro amiri Muzaffar yordamida Qoʻqon taxtiga qayta oʻtirgan. Ammo Musulmonqulning oʻgʻli mingboshi alimqul xonzodalardan boʻlmish yosh Said Sultonmurodni xon deb eʼlon qiladi va Xudoyorxonni yana Buxoroga qoxhishga majbur etgan. Alimqul amir ul-umaro boʻlib amalda davlat ishlarini yakka oʻzi boshqarib borgan. Qoʻqon xonligidagi ichki kurashlardan foydalangan Rossiya imperiyasi xonlikka tegishli Turkiston, Chimkent (1864-y) va Toshkentni (1865-y.) bosib olgan. 1865-yilda Qoʻqon taxtiga Xudoyqul («Belboqchixon» degan laqabi ham mavjud) oʻtirgan. Ammo u 14 kundan soʻng xazinani oʻzi bilan olib Qashqarga qochib

⁵ Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent 2009, 76-bet.

ketgan. Bundan foydalangan Xudoyorxon yana taxtga chiqqan. Xudoyorxon davrida qishloq xo'jaligiga e'tibor berilgan, yangi anhor va ariqlar qazilgan. Qo'qonda 1873-yilda xon o'rdasi bitkazilib nihoyasiga yetkazilgan. Bundan tashqari, Xudoyorxon davrida "Madrasai Oliy", "Madrasai Hokim oyim", "Madrasai Sulton Murodbek"lar qurilgan. Xudoyorxonning farmoni bilan mahzun (Ziyovuddin Ho'qandiy) 1696 sahifalik "Shohnoma" asarini yozgan (qo'lyozma Istambulda saqlanmoqda).

Xudoyorxon davrida xonlik hududi ancha qisqarib, turli soliqlar o'ylab chiqilgan. Buning ustiga 1868-yilgi Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman bilan tuzilgan "teng huquqli" shartnomaga muvofiq, rus savdogarlariga xonlikning hamma shahar va qishloqlarida bo'lish va karvonsaroylar qurish, rus tovarlarini xonlik hudui orqali boshqa davlatlarga boj to'lamasdan bemalol olib o'tish huquqi berilgan; rus savdogarlari qo'qonlik savdogarlar bilan bir miqdorda boj to'laydigan bo'lgan. Xudoyorxon Turkiya va Buxoro bilan yaxshi aloqaga bo'lishga, angliya emissarlari bilan uchrashib, ulardan madad olishga intilgan. Ammo, yuzaga kelgan siyosiy vaziyat tufayli u K.P. Kaufman bilan ko'proq yaqinlashishga majbur bo'lgan.

Taxt uchun kurashlar, o'zaro urushlar, soliqlarning ko'payib ketishi aholi turmushini og'irlashtirgan. Natijada xonlikda tez-tez qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Shulardan eng kattasi 1873-yilda boshlangan "Po'latxon qo'zg'oloni" bo'lgan. Qo'zg'olonni bostirishning ilojini topa olmagan Xudoyorxon, barcha xazinani olib K.P.Kaufmandan harbiy yordam olish uchun Toshkentga qochgan, so'ngra Orenburgga surgun qilingan. U bu yerdan qochib Makkaga borgan. Keyinchalik, Qo'qon xonligining qolgan hududlarini ham Rossiya bosib olganidan so'ng, Xudoyorxon K.P. Kaufmanga rasman murojat qilib siyosiy ishlarga aralashmaslikni va'da qilib Qo'qonga qaytishga ruxsat so'ragan, ammo rad javobini olgan. Xudoyorxon ikkinchi marta murojat qilgan. Bu ariza senatda ko'rib chiqilib Xudoyorxonga Qo'qonga qaytishga ruxsat berilgan. Ammo bundan xabarsiz Xudoyorxon yashirin holda Qo'qonga qaytmoqchi bo'lgan. Yo'lda vafot etgan.

Norbo'tabiy, Norbo'taxon (taxminan 1749—1798) — Qo'qon xoni (taxminan 1763—1798). Abdulkarimbiynkng nabirasi, Abduraqmonxonning o'g'li. 14 yoshidan taxtga chiqqan. Namangan beklarining separatizmini bostirgan. Qo'zg'olon ko'targan Xo'jand begini yengib, shaharni o'ziga bo'ysundirgan. Ammo Uratepa nomigagina Buxoroga tobe bo'lib qolgan. Norbo'tabek hukmronligining so'nggi yillarida akasi Hojibek O'ratepa va Qu-rama xrkimlari yordamida isyon ko'tarmoqchi bo'lgan. U To'raqo'rg'on va Andi-jonni maskan tutgan. Norbo'tabek Andijonga qo'shin tortib, akasi bilan sulh tuzgan.

Norbo'tabiy vafot etgan yil (1798) Erdona-xon maqbarasi yaqinidagi Madrasa qurilishi nixryasiga yetgan (q. Norbo'tabiy madrasasi). Uning davrida Farg'ona vodiysini birlashtirish jarayoni tugagan, iqtisodiyot tiklangan, mo'l-ko'lchilik, arzonchilik bo'lgan. Bu esa Farg'onaga chekka tuman va viloyatlardan ko'plab aholini ko'chib kelishiga zamin yaratgan. Qo'qon vodiyni madaniy-iqtisodiy markaziga aylangan.

Kamol qozi madrasasi - Qo‘qondagi me‘moriy yodgorlik, 19-asrga tegishli. Kamol qozi madrasasining binosi darsxona, ayvonli masjid, hovli va kichik hujralardan iborat. Darvozaxona serhasham bo‘lib, Xudoyorxon o‘rdasida bo‘lgani kabi bu binoda ham faqat kirish qismi (sirti) zeb berib ishlangan.

Peshtoq tepasi rangbarang naqshlar bilan qoplangan bo‘lib, handasiy shakllar arabiy bitiklar bilan uyg‘unlashib ketgan. Peshtoqining ikki yonidagi ustun go‘shalar yuqorisi bezakli kafasa bilan yakunlangan. Darvozaxona ikki qavatli. Ustki qavatdagi darsxona oldi peshayvonli bo‘lib, panjara bilan to‘silgan. Tomi 4 qirrali-chortark gumbaz bilan qoplangan. Hovli atrofiga masjid va hujralar qurilgan. Masjid 4 ustunli, sharq tomoni ochiq, to‘sin tashlab qurilgan ayvoni bor.

Daxmai shohon (shohlar daxmasi) — Qo‘qon sh.dagi me‘moriy yodgorlik. 19-asrning 20-y.larida qurilgan. Qo‘qon xonlari xonadonlariga tegishli shaxslar Norbo‘tabiy va uning avlodlari dafn etilgan xazira. Daxmaga g‘arbdan peshtoq (9,4x11,7 m) orqali kiriladi. Peshtoqining ikki tomoniga burjlar ishlangan, sirkor g‘isht va koshin bezakli qilib terilgan. Peshtoq sathining yon tomonlari to‘q zangori rangdagi juft qalampir tasvirlar bilan bezatilgan. O‘rta qismiga zangori, yashil va oq koshindan sakkiz qirrali yul-duzlar, tepasiga qizil, qora va yashil rangli yo‘lyo‘l chiziqlar tushirilgan. Ravoq tepasida qizil, pushti, yashil, zangori va oq rangdagi oltiburchak va romb shakllari tasvirlangan. Maqbara eshigi o‘yama o‘simliksimon naqsh va arabiy yozuvlar bilan uyg‘unlashtirilib nafis bezatilgan. Maqbara gumbazli, ichki devorlaridagi darchalarning biridan tomga, ikkinchisidan masjidga o‘tilgan. Uchinchisi esa ochiq turgan. Ichki qismidagi katta ravoqlar bilan darcha ravoqlarining oraliqlaridagi g‘ishtlar tik, gajaklar esa to‘lqinsimon qilib terilgan. Maqbara yonida ayvonli masjid (7x6,8 m) ikki us-tunli bo‘lib, uning to‘sinli shifti 4 katakka bo‘lingan, bo‘yama naqsh bilan bezatilgan. D.sh.da xonning onasiga atab qurilgan Modarixon maqbarasi yaxshi saqlangan.

Uning ichki tomoni ganch bilan ishlangan. Sirti suvoqsiz. Kamol qozi madrasasi me‘morligida qo‘qonlik xalq ustalarining an‘analari o‘z ifodasini topgan. Madrasa ta‘mir qilinib, undan mehmonxona sifatida foydalanilmoqda.

2. QO‘QON NAQQOShLIK MAKTABINING KECHASI VA BUGUNI HAQIDA

XIX asrga oid Buxoro, Samarqand, Farg‘on va Toshkent tarixiy obidalari o‘rtasida bir-biriga yaqinlik, o‘xshashlik va munosabat sezilib turadi. Bu hol ularni tarixan tashkil topishidagi, uslubidagi yaqinligini ko‘rsatadi.

Chunki Xudoyorxon o‘rdasini qurishda mashhur Qo‘qon ustalari Samarqanddagi savdogar Qalantarov uyini (ya‘ni, hozirgi O‘zbekiston san‘ati va madaniyati tarixi Farg‘on va Buxoro Samarqandga kelib ishlashar edi.muzeyi) qurishda qatnashganlar. Qo‘qon va Marg‘ilon ustalari ish oxtarib Toshkent, Andijon, Xo‘jand kabi Samarqand va Toshkent ustalari Buxoro qurilishlarida qatnashardilar. Bu hol, albatta, naqqoshlar kompozitsiyasi mujassani, ranglar turini

boyitdilar, bo`yoqlar tayyorlashni takomillashtirishdi va ustalar mahoratini oshirishga yordam berardi.

O`tgan asr Qo`qon, Toshkent, Buxoro va Samarqand naqshlarini diqqat bilan o`rganadigan bo`lsak, ular uchun umumiy bo`lgan bir xususiyat mavjudligini anglaymiz. U ham bo`lsa ornamentlar mundarijasininig bir-biriga yaqinligida, ularningo`simliksimon gullarining bejirimligida, yoqinligida, bo`yoqlarning tekis ishlatilishida ko`rinadi.

Farg`ona uylari ichiga mohir usta hunarmandlar qo`llari bilan chizilgan kompozitsiya bir-biriga yaqin turuvchi turli-tuman yetuk me`morlik namunalarini o`zida aks ettirgan. Xonalarda, ayniqsa mehmonxona ichida naqshkor va o`ymakor bezaklar keng qo`llanilgan. O`sha paytlarda ko`p uylarni naqqosh usta Saidahmad Norqo`ziyev va uning shogirlari tomonidan bezatilgan.

Usta Saidahmad yoshligida otasi va ustosi Muhammad Soli o`rgatgan prinsiplarga amal qilgan:

- Chizadigan naqshlarning yagona masshtab va xarakterini saqlashga, har bir xona o`lchamlariga ko`ra kompozitsiyasining murakkabligini, naqshning rang-barangligini va quyuqligini aniq belgilab olishga harakat qilgan;
- Dekorativ vositalarni o`z o`rniga qo`yib chiqqan. Uy ro`parasidagi devorining yuqori qismi va shift naqshlari ustaning doim diqqat markazida turadi;
- Xona ichi yorqin va ochiq ranglarda bezagan va ko`pincha devorning pastgi qismiga sovuq, yuqori qismiga issiq rang bergan. Quyoshga teskari devoriga esa u ranglarga nisbatan bir oz ochroq ranglarda bo`yagan;
- Naqshlarni taqsimlash, joylashtirishda muvozanatni saqlash harakat qilgan. Ayrim ijodiy naqsh kompozitsiyasini bo`yashda esa zamin va naqsh o`rtasidagi muvozanat alohida ahamiyat kasb etgan.

Ustani o`sha paytlarda mashhur nom qozongan iste`dodli naqqoshlardan biri bo`lgan. U murakkab naqshlarni ham kata mhorat bilan tez va erkin chiza olgan. Uning qalamni qog`ozdan uzmay turib mukammal shakldagi rasmlarni qo`li bilan chizib chiqishini kutazish g`oyat kishilarga erk bag`ishlagan.

Usta Saidahmad ko`mir qalamlarda chizilib quruq chiqqan naqshlarni yoqtirmagan va shuning uchun ham u qog`oz va chizadigan joylariga naqsh kompozitsiyasi elementlarini to`g`ridan to`g`rib o`yoqlarda tushirib, mayda rasmlarni esa naqshlash davomida erinmay o`z qo`li bilan chizib kelgan. Ba`zi takrorlanmas gullarini ko`mir qalamda ishlab chiqqan.

Naqshlar mundarijasi rasm va rang jihatdan me`moray obidalarimizga monan qilib chizib bezagan. Usta ko`p yillik ish davomida binolar naqqoshligining bu xususiyatini ham yaxshi o`zlashtirib olgan.

Norqo`ziyev naqshlari gullaridning tabiiyligi, ortiqcha bezaklardan xoliligi bilan ajralib turadi. Usta asosiy kompozitsiyasi gular harakteri jihatidan uch turga bo`linadi: Tabiiy o`simliksimon, mavhum o`simliksimon va chiziqli geometrik naqshlarga bo`linadi.

Saidahmadning o`simliksimon o`simliksimon naqshlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- BAND-naqsh kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi har xil qalinlikdagi to`g`ri chiziq. U yakka band bo`lishi mumkin.
- BARG-ikki xil bo`ladi. Oddiy barg va yirik shobarg.
- GUL-kompozitsiyada band oxiri gul tasviri bilantamomlanadi. Bular Farg`ona vodiysida keng tarqalgan lola, chinni gul, savsar gul, atir gul, qo`qon gul kabi gullardan iborat.

Naqsh kompozitsiyasiga usta yozuvlarini ham qo`shib ishlay boshlagan. Mohirlik bilan yozilgan iboralarida mehmonga hurmat, yoshlarga nasihatni o`qiymiz. Ko`pincha ularga xalq sevgan baytlar bitilgan.

Devor o`rta qatorini bezash uchun alohida naqsh kompozitsiyasi- namoyon qo`llanilgan. Ustaninig fikricha, “turli harakterdagi ornamentli ikki namoyon bir uyda yonma-yon tursa bezak xunuk ko`rinadi⁶”.

Usta uchun ranglarni to`g`ri tanlay bilish ham g`oyat muhim ishdir. Katta tajriba orttirish, naqqoshlikdagi boy merosimizni asosli o`rganish natijasidagina ranglar uyg`unligini, jiloli chiqishini, ularning elementlari shakliga mos kelishini chuqurxis etish mumkin. Ilovalarda keltirilgan rangli ijodiy ishlar usta Norqo`ziyev ijodini o`rganishda qisman tasavvur beradi.

Usta Saidahmad faqatgina naqqoshlik bilan kifoyalanib qolmasdan manzara janrida ham ijod qilgan. U asosan nusxa ko`chirish bilan shug`ullangan. Usta manzaralarni o`ziga xos tarzda bo`yagan, u ba`zan perspektiva qonunlariga zid ravishda yon ko`rinishlarni ham bir tekislikda ustma-ust joylashtira beradi.

Xalq ustalari ijodi qanchalik boy tajriba, san`at imkoniyatlarini o`zida aks ettirishini Norqo`ziyev ishlari misolida yaqqol ko`rishimiz mumkin. Shuning uchun xalq dekorativ san`atiga qiziqish kun sayin o`sib borgan. Qadimiy naqqoshlik san`ati yangi mazmun bilan boyigan holda respublikamiz uy-joy, jamoat binolarida keng tadbiiq etilgan. Toshkentning ba`zi binolarida o`rinli ishlangan naqshlar ayniqs kishi diqqatini o`ziga jalb qildi.

Naqqoshlar safi yil sayin yosh ustalar bilan to`lib bo`lgan. Saidmahmud Norqo`ziyev kompozitsiyasidan tuzilgan ilova yosh naqqosh ustalarning ish tajribalarida yordam berishi mumkin.

Mahmudov Saidahmad (1909.12.03, Qo`qon – 1998.02.09) – naqqosh, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi (1989). O`zbekistonda BA faxriy a`zosi (1997). Naqqoshlikni otasi usta Saidmahmud Norqo`zievdan o`rgangan. 1928 yildan “Quyosh” arteliga naqqosh. Otasi bilan jamoat binolari (Choyxona va klublar)ni bezashda ishtirok etgan. II – jahon urishi qatnashchisi (1941-1943). Navoiy teatri binosidagi Farg`ona zalini bezashda ishtirok ergani (1946-1947) dan so`ng mustaqil usta sifatida foliyat boshlagan. Mahmudov Saidahmad farg`ona voduiga hos naqqoshlik maktabi an`analarining rivojlanishi va boyitishiga katta qissa qo`shdi, uning ijodiga bezakning me`moriy shakl bilan, ranglarning o`zoro uyg`unligi, naqsh mujassamoti yechimining puhtaligi hos. Mahmudov Saidahmad O`zbekiston, Tojikiston, Qirg`izistonda ko`plab madaniyat saroylari, klub,

⁶П.Захидов “ФЕРГАНСКАЯ РОСПИСЬ” Гослитиздат УзССР Ташкент-1960, 12-бет.

mehmonxona, choyxonalarini bezadi; Qo'qondagi "Baxt uyi", "Ustoz", "Guldasta" choyxonalarini, Farg'onadagi "Paxtakor" k-zining kulib, choyxona va mehmonxonasi, O'zbekiston tumanidagi avtovakzal, Qo'qon moy – yog' k-ting choyxona va profilaktoriysi, Toshkentdagi "Farg'ona" choyxonasi va boshqalar. Qo'qondagi Xudoyorsin saroyi (hos. shahar o'lkashunoslik muzeyi) zallarini tamirlashda ustaning mahorati nomoyon bo'ladi. 1963 yilidan Qo'qon shahrida o'quvchilar saroyidagi naqqoshlik to'garagida, keyinchalik "ustoz - shogird" usulida ko'plab shogirdlar tayyorladi.

O'tgan yillarda faoliyat olib borilgan Xalq amaliy san'at ustalari va hozirgi kunlarda ijod qilayotga amaliy san'at ustalarining barchasi avval naqqoshlik san'atini o'rganishdan boshlagan. Misol uchun, Qo'qon Yog'och o'ymakor ustasi Qodirjon Haydarov ham avval naqsh kompozitsiyasini yaratib, shu asosida yog'och o'yib milliy buyumlarni bezagan. Xalq amaliy san'atining: Ganchkorlik, yog'och va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, zargarlik, zardo'stlik, kashtachilik va shu kabi san'at turlarini naqshlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Har bir usta o'z ijodiy ishlari qaysi maktabdan hunar egallagan bo'lsa ham, o'z maktabini yaratadi.

II-bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XIX asrga oid Buxoro, Samarqand, Farg'on va Toshkent tarixiy obidalari o'rtasida bir-biriga yaqinlik, o'xshashlik va munosabat sezilib turadi. Bu hol ularni tarixan tashkil topishidagi, uslubidagi yaqinligini ko'rsatadi.

Chunki Xudoyorxon o'rdasini qurishda mashhur Qo'qon ustalari Samarqanddagi savdogar Qalantarov uyini (ya'ni, hozirgi O'zbekiston san'ati va madaniyati tarixi Farg'on va Buxoro Samarqandga kelib ishlashar edi.muzeyi) qurishda qatnashganlar. Qo'qon va Marg'ilon ustalari ish oxtarib Toshkent, Andijon, Xo'jand kabi Samarqand va Toshkent ustalari Buxoro qurilishlarida qatnashardilar. Bu hol, albatta, naqqoshlar kompozitsiyasi mujassani, ranglar turini boyitdilar, bo'yoqlar tayyorlashni takomillashtirishdi va ustalar mahoratini oshirishga yordam berardi.

O'tgan yillarda faoliyat olib borilgan Xalq amaliy san'at ustalari va hozirgi kunlarda ijod qilayotga amaliy san'at ustalarining barchasi avval naqqoshlik san'atini o'rganishdan boshlagan. Misol uchun, Qo'qon Yog'och o'ymakor ustasi Qodirjon Haydarov ham avval naqsh kompozitsiyasini yaratib, shu asosida yog'och o'yib milliy buyumlarni bezagan. Xalq amaliy san'atining: Ganchkorlik, yog'och va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, zargarlik, zardo'stlik, kashtachilik va shu kabi san'at turlarini naqshlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

III-bob. NAQSH KOMPOZITSIYASINI YARATISH

1.NAQQOSHLIK MATERIALLARI VA ELEMENTLARI FOYDALANISH TARTIBI.

Naqqoshlikda keng qo'llanib ishlatiladiga materiallar quyidagilar:

- Qalam- Yunoncha Qamish so'zidan olingan- ko'mir, grafit, qo'rg'oshin, quruq bo'yoqdan qilingan.
- Qog'oz- chizish uchun mo'ljallangan, rangli bo'yoqlar uchun mo'ljallangan turlari ham mavjud.
- Kalka qog'oz- chizmachilik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi va boshqa san'at turlari eskizidan nusxa olishda ishlatiladigan shaffof qog'oz yoki gazmol.
- Mo'yqalam- Qil qalam, naqqoshlikda, rassomchilikda bo'yoqning qog'oz, gancha, yog'och, karton va boshqa turlarda tasvir solish, bo'yash, chizishda ishlatiladigan asbob.
- O'chirgich (Rezina)- naqsh kompozitsiyalarini chizishda optiqcha chiziqlarni o'cherish uchun foydalaniladi.
- Akvarel bo'yoq- tarkibida asal maxsuloti mavjud suvli bo'yoq, naqqoshlikda bezashda, taroq tortishda ishlatiladi.
- Guash bo'yoq- Bu ham akvarel bo'yoqqa o'xshash lekin tiniqlik miqdori kam suv bo'yoq. Buni eskizni bo'yashda ishlatiladi.
- Lok – Sirtga surtiladigan qotib, yaltiroq qattiq parda hosil qiluvchi organik moddalar aralshmasi.

Oddiy naqsh namunalarini o'rganishda, o'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan naqsh elementlarini yoddan chizish, stilizatsiya orqali yangi naqsh elementlarini hosil qilib ular ishtirokida kompozitsiyalar tuzish maqsadga muvofiqdir.

“Har bir insonning o'z ismi bo'lganidek, har bir naqshning o'ziga xos nomlari bo'ladi. Naqshning nomlanishi uning xarakterli o'rni bilan belgilanadi.

Har bir naqsh ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Naqshlarning o'ziga xos nomlari va ma'nosi bo'ladi.

Har qanday naqsh oddiy elementlarning ma'lum g'oya, xarakter va vazifasiga muvofiq joylashtirilishi, o'zaro uyg'unligi va muttanosibligi bilan hosil bo'ladi. Bu qisqacha kompozitsiya (mujassamot) deyiladi”. 1

Shuningdek naqsh chizishni barcha qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirib borishda, mavjud yo'l ichidagi o'nta oddiy naqsh namunasini aslidek yoddan chizib o'rganish kerak bo'ladi.

Oddiydan murakkablashib boruvchi mavjud o'nta hoshiyasimon naqsh namunalarini taniqli naqqosh ustozlarimiz tomonidan tuzilib, nomlangan deyishadi. Aytishlaricha 1934 yili Toshkentda ochilgan Badiiy o'quv ishlab chiqarish kombinatining naqqoshlik bo'limi o'qituvchisi usta Olimjon Qosimjonov va

bir-oz keyinroq, Jalil Xakimovlar, boshlang'ich dars mashg'ulotlarni to'rtta naqsh namunasi yordamida o'rgatar ekanlar.

Ayrim taxminlarga ko'ra bu naqsh namunalarini yuqorida nomlari zikr etilgan ustalarning o'zlari yaratganlar. Keyinchalik usta Jalil Xakimovning, birinchi shogirdlaridan bo'lmish mohir pedagog naqqosh usta Mahmud To'raev oddiy naqsh namunalarining yana qo'shimcha oltita nusxasini yaratib, nomlagan.

1. S.S.Bulatov "Ganchkorlik" 5sinflar uchun qo'llanma. T. "O'qituvchi" 1997 y

Mavjud o'nta oddiy naqsh namunalarini boshqa o'ymakor ustalar, yog'och va ganch o'ymakorliklariga oid, o'yish jarayonlariga mos ravishda, qo'shbandli naqsh holatlarida chizganlar. Oddiy naqsh namunalarining nomlanishi va chizilishi tartibi quyidagicha:

- "Bodom guli" (1 gul)
- "Yak raftor" (2 gul)
- "Bargli raftor" (3 gul)
- "Bargli islimli" (4 gul)
- "Aylana shukuftali islimiy" (5 gul)
- "Mehrob islimi" (6 gul)
- "Islimi bafta" (7 gul)
- "Qo'sh mehrobli islimi" (8 gul)
- "Patnisgul islimi" (9 gul)
- "Islimi shkufta" (10 gul).

Biz dastlab oddiy naqsh namunalarini katak daftariga bosqichma-bosqich chizishni mashq qilishimiz kerak. Ma'lum tajribaga ega bo'lganimizdan so'ng, mazkur naqshlarni rasm daftariga ikki nusxada qalamda va bo'yash uchun alohida tarzda chizamiz.

Oddiy va boshqa naqshlarning mukammal tuzilishi jihatlariga nazar tashlasak, ulardagi shakl yasovchi asosiy yo'l harakatlarini yoki to'ldiruvchi gul, novda elementlarining har qaysisi o'z holicha kompozitsion echimlardan iborat. Misol, "Qo'sh mehrobli islimi". naqshda mehrob shaklimiz yakka bandli shakl yasovchi vazifasini o'taydi va gul novda, kurtak elementlari esa naqshning zaminini to'ldirib turadi. Mehrob shakli o'z holicha novda gul bog'lanishlari bilan alohida naqsh tasvirlarini anglatishi mumkin.

Mashq. Oddiy naqsh namunalarini chizishga doir mashqlar.

Yuqorida aytib o'tilgan o'nta gulni qalamda chizishni mashq qilamiz.

Bu mashqlarni bajarish uchun katak daftar yoki rasm daftar, qora qalam, chizg'ich kerak bo'ladi. Naqsh o'lchamlariga ahamiyat bergan holda qalamni engil, bosmasdan chizish kerak.

1 – gul. "Bodom guli" ni qalamda katak daftarda quyidagi bosqichda chizamiz. Chizishda ritm va simmetriyaga rioya qiling.

1 – bosqich. Ikki parallel chiziq chizilib, ularning oralig'i teng bo'laklarga bo'linadi. Katak - kvadratlarga diogonal o'tkaziladi. Bularning hammasi ingichka chiziqlar asosida bajariladi.

2 – bosqich. Ikki kvadrat oralig'iga yarim aylana chizib chiqiladi.

3 – bosqich. Yarim aylana shakllari pastki tomonlarga ham ishkomb ko'rinishiga chiziladi.

4 – bosqich. Ikkala bargning pastki va ustki tomonlaridan kurtaklar chiziladi. Qolgan 9 naqsh gullarini shu kabi bosqichlar asosida chizib oling. Naqshlarni bir necha marotaba takroran nafis va ravon chizib o'rganing.

Ranglarning kishi ruhiyatiga ta'siri o'ziga xosdir.

Ranglarni tabiatda insonlarning o'zlari tanlaydilar. Rang tuslari orqali kishilarning xarakteri kayfiyati va boshqa xususiyatlarini belgilash mumkin. Tabiatan issiq rang tuslarini yoqtiruvchi kishilar jo'shqin to'pori, qiziqqon xarakter egalari sanalsa – sovuq rang ixlosmandlari aksincha muloyim, bosiq chehrali kishilardir. Ranglarning inson ruhiy olamiga ta'sirini ko'rib chiqaylik:

Yashil rang tinchlantiradi.

Sariq rang tetiklashtiradi.

Qizil rang kayfiyatni ko'taradi.

To'q havo rang ishtaha ochadi.

Zarg'aldoq rang e'tiborni tortadi.

Ranglar mazmuni

Yashil rang – ona tabiat ramzi.

Ko'k rang – moviy osmon.

Qizil rang – g'alaba, shodlik.

Sariq rang – muqaddaslik.

Qora rang – motam.

zangori – oliy e'tiqod.

Oq rang – tozalik, baxt va omad ramzi.

Naqqoshlikda kompozitsiya qonuniyatlaridan tashqari uni bo'yashda qo'llaniladigan bo'yoq turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, rang koloriti, hamohanglik va shu kabilar muhim ahamiyatga ega.

Xalq ustalari tomonidan yaratilgan amaliy san'at namunalarini kuzatar ekanmiz, ular biron-bir rang tuslari ta'siriga ya'ni rang kaloritiga bo'ysundirilganini ko'ramiz. Shunga asosan havorang, yashil rang, jigar rang va shu kabilar muhitiga xos naqsh kompozitsiyalari ishlanadi.

Mo'jaz bezatilgan buyumlardan tortib katta-katta bino va inshoatlar asosan rang va chizgilar jilosida nechog'lik nafis va ulug'vor ko'rinadi.

Har bir voha va naqqoshlik maktablarining o'ziga xos rang kaloritlari mavjud bo'lib, Xorazm naqqoshlari havo rang, Qo'qon ustalari qizil-zangori, Toshkent naqqoshlari esa to'ti yoyi va och jigar rang tuslarida ijod qiladilar.

Albatta naqqoshlik san'atida oddiy chiziqlar mohiyatini rang tuslari ochib beradi. Naqshlarni bo'yashda zamin va shakl oraliqlariga to'q rang, gul novda va boshqa elementlariga och ranglar beriladi. Ranglash bosqichlarida iliq va issiq ranglar aralash qo'llanilmaydi. Aksincha, naqsh namunalarining umumiy talqinlariga e'tibor beriladi. Ma'lumki, iliq ranglar tarkibiga: qizil, qirmizi, gulnor, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Bu kabi ranglar issiq havo, quyosh taftini, sovuq ranglarga esa salqinlik, suv, muz holatini anglatuvchilar kiradi. Yashil ranglar iliq-issiq ranglardir.

Atrof-muhitdagi narsalar tushayotgan yorug'lik ta'siri ostida o'zlarining rang tuslarini tez-tez o'zgartirib turadi. Masalan, quyosh nuri yon tomondan yoritib turgan maysalarning rangi sarg'ish-yashil ko'rinishda bo'lsa, xuddi shu maysaning soyada turganlari bir oz to'qroq yashil rangda ko'rinadi. Naqqoshlikda ham ranglarning ana shu xususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko'rish lozim bo'ladi. Agarda ishlanadigan naqsh yorug'roq joyga qo'yiladigan yoki ishlanadigan bo'lsa, rang tuslarini bir oz to'qroq olish mumkin. Aksincha, bir oz yorug'lik nurlari kamroq tushadigan erlarga joylashtiriladigan bo'lsa yorug'roq ko'rinishdagi rang tuslaridan foydalaniladi.

Naqqoshlikda suv va moybo'yoqlardan keng ko'lamda foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida rangshunoslik borasida ham kerakli bilim va amaliy malakalarga ega bo'lishlari lozimligini taqozo etadi.

Tayyor naqsh namunalarini bo'yashda bir rangning bir necha hil tuslari qo'llaniladi. Bunda oq bo'yoq asosiy o'rinni egallaydi. Akvarel bo'yoqlari bilan qog'ozga ishlangan naqshlarni bo'yayotganda esa suv-rang tusini ochlashtiruvchi vosita sifatida katta ahamiyatga egadir.

Shuni esda tutish lozimki, ayrim bo'yoqlarni bir-birlari bilan aralashtirishda ba'zi bir ehtiyot choralarini ko'rish lozim bo'ladi. Chunki, to'q rang tusiga ega bo'lgan bo'yoq tarkibiga boshqa rang aralashtirilsa uning tusi ham to'qlashadi. Bu esa o'z navbatida rang tusining tiniqlik darajasiga ta'sir etadi. Ayniqsa, moy bo'yoqlarida ishlangan naqshlarning tuslari keyinchalik to'qlashib, qorayib ketishga moyil bo'ladi. Agarda naqshlar uzoq vaqt saqlash uchun mo'ljallangan bo'lsa ularni iloji boricha ochiq rang tuslarida bo'yash tavsiya etiladi. Umuman olganda naqsh sirtiga iloji boricha quyosh nuri tushmaydigan bo'lishi lozim. Shuningdek, nam havo yoki suv tegishi naqshning uzoq muddatga saqlanishi uchun jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Umuman olganda badiiy naqqoshlikda ana shu sharoitlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Badiiy naqqoshlikda quyidagi ranglar va ularning tuslaridan keng ko'lamda foydalaniladi:

Zangori ranglar va ularning tuslari (och zangori, zangori, to'q zangori, och havo rang, havo rang, to'q havo rang, moviy ko'k).

Sariq ranglar va ularning tuslari (och sariq, sariq, to'q sariq sarg'ish, limonli sariq, kadmiyli sariq, sarg'ish zarg'aldoq).

Qizil ranglar va ularning tuslari (och qizil, qizil, to'q qizil, och va to'q qirmizi, qirmizi, alvon rang, och va to'q zarg'aldoq, zarg'aldoq ranglar va boshqalar).

Yashil rang va ularning turlari (och va to'q yashil, yashil, sarg'ish yashil, to'tyoyi (to'taki), zaynovi (chiroyli o'tkir rang yashil), zumrad rang, ko'kish yashil).

Binafsha rang va ularaning tuslari (och va to'q binafsha, binafsha siyoh rang, ko'kish binafsha qizg'ish binafsha va shu kabilar).

Jigar ranglar va ularning tuslari (och va to'q jigar rang, jigar rang, qizg'ish va sarg'ish jigar rang, qoramtir jigar rang va boshqalar).

Qora rang va uning tuslari (och va to'q qora, qora och va to'q kul rang va shu kabilar).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ranglar va ularning tuslari ko'pincha badiiy naqsh koloritini belgilashda katta o'rinni egallaydi. Shunga ko'ra rang muhiti biror bir aniq rang tusi koloritiga bo'ysundiriladi. Masalan jigar rang, havo rang, sarg'ish yoki qizg'ish ranglar muhitida ishlangan naqsh kompozitsiyalari shular jumlasidandir.

Naqsh rang bilan jozibalidir. Naqsh elementlarining ko'zga yaqqol tashlanishi, naqsh va zamin yuzalarining hamohangligi va o'ziga xos ramziylikni kashf etuvchi xususiyatlarini, albatta rang tuslarisiz tasavvur etish qiyin.

naqshda rang uyg'unligiga erishish katta san'atdir. Rang uyg'unligi deb ma'lum bir yuzadagi turli ranglarning qaysi tomonlari bilandir o'zaro mos kelishiga aytiladi. Rang uyg'unligini ko'ra bilish va yarata olish uchun qaysi rangni qanday rang bilan aralashtirish mumkin, uni qaysinisi bilan aralashtirib bo'lmasligini, qaysi ranglar yonma-yon kelsa, rang uyg'unligi paydo bo'lishini bilish kerak. Ranglar uyg'unligi to'g'ri topilsa, mavjud barcha ranglarni qo'llash imkoniyati keskin ortadi, san'atkor ranglar yordamida mo'jizalar yaratadi

Xalq ustalarining ijodiy ishlarini qaysi naqqoshlik maktabiga mansub ekanligini naqsh kompozitsiyasi va rang tuslari orqali tezda aniqlab olish mumkin. Masalan: Xorazm naqshlarida havo rang yashil tuslarni ko'plab uchratish mumkin. Naqsh elementlari esa spiralsimon islimiy naqshlarni tashkil etadi. Farg'ona uslubi esa yashil ko'k, qizil rang tuslarining bir oz to'qroq darajada aralash uyg'unlashuvchi bilan xarakterlidir. Toshkent naqshlari och yashil – havo rang, to'ti yoyi hamda och jigar rang tuslarda tovlanadi.

Naqsh elementlarini Ovro'po bezakchilik tuslariga xos oltinsimon jigar rang koloritlarida turlash usullarini birinchi bo'lib naqqoshlik san'atiga usta Toir To'xtaho'jaev kiritgan .

Mohir pedagog naqqosh usta Mahmud To'raev o'z ustozlari J.Xakimov va T.To'xtaho'jaevlarni xotirlab shunday deydilar:

- “Naqqoshlik san'atini sehrgarlik san'atiga qiyosligim keladi. Naqqosh turli rang tuslari orqali naqshdagi jonsiz chiziqlarni kuylata oladi. Ustozlarim Jalil Xakimov va Toir To'xtaho'jaevning ijodlarini

olaylik. Jalil Xakimovning ijodiy uslublarini mumtoz klassik yo'nalish deb olsak, Toir akaning naqshlarida lirikani his qiladi kishi”.

Naqqoshlikda ranglar naqsh tuzilishi va uslublariga xos ravishda tovlanadi. Shuningdek, naqsh ishlanadigan buyum yoki yuzaning maqsad-vazifalari, hajmli, balandligi va kompozitsion echimlari alohida e'tiborga olinadi. Yangi naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonlarida ustalar (ayniqsa bino bezaklari) masofani ranglash va pardozlash bosqichlarini ham hisobga oladilar. Bu esa naqshdagi rang tuslarining teng tarqalishi – zamin shakl va gul elementlarining oraliqlaridan yaxshi ko'rinishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki naqshda har bir element shakl va rang tuslarining o'z nomlari, ramziy ma'nolari mavjud. Naqshlarni ranglash va pardozlash bilan ularning go'zalligini, mazmun va ma'nolari unsiz tovushlar orqali ifodalanadi. Naqshlarni ranglash bosqichlarida zamin shakl, gul, novda, barg kabi elementlar asosan bitta

rang koloritiga bo'ysungan holda turlanadi. Naqshni ranglash bosqichlari quyidagicha:

1. Naqshning zaminini (tagini) ranglash.
2. Naqshdagi shakl oralarini ranglash.
3. Naqshning gullari, barglari va bandlariga rang berish.
4. Naqshning shkufta va yo'l chiziqlarini ranglash.
5. Naqshga siyoh qalam va targ'il berish.
6. Naqshning oq bandlari va obisini tortish

Naqshlarga rang berishda qalamda chizilgan chiziqlarni berkitish, chala bo'yamaslikka alohida e'tibor berish kerak. Naqsh ranglari bir-biri bilan tutashtirilgan holda bo'yalmasa, siyoh qalamda berilgan pardozi ko'ngildagidek chiqmaydi. Natijada naqshning go'zalligi va chiroyiga putur etadi.

Naqshlarni asosan guash va akvarel bo'yoqlari yordamida bo'yash maqsadga muvofiqdir. Ranglarning xilma-xil tuslarini tayyorlashda guashning oq bo'yog'i etakchi vazifani o'taydi. Naqshni bo'yash uchun bo'yoqlar chinni yoki plastmassa idishchalarda tayyorlanadi. Ayniqsa, maxsus chiqarilgan kolerlarni bir biriga qorishtirishda yog'och kurakchalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda har bir rang tusi uchun alohida yog'och kurakcha qo'llaniladi. Bu o'z navbatida bo'yoqlarni ifloslanib ketishdan saqlaydi. Tayyorlangan bo'yoq judayam suyuq bo'lsa, unda naqsh yuzasi bir tekisda bo'yalmaydi. Guash bo'yog'ini qog'oz sathiga qalin va quyuk surtish mumkin emas. Chunki qalin bo'yoq qavati quriganidan so'ng, yorilib ko'chib ketadi.

Naqshlarni «o'qish» xalqning boy madaniyatini ochuvchi o'ziga xos umumiy kalit sanaladi.

Naqshning zamini – foni uchun rang tayyorlashda uning tusi bir oz to'qroq olinadi. Sababi, to'q rangli zaminda boshqa engil, ochiq tusdagi ranglar yanada tiniq va ravshan, go'zal bo'lib ko'rinadi. Naqshning shaklini ifodalovchi ko'rinishlarni ajratib bo'yashda o'rtacha to'qlikdagi yoki ochroq tusdagi ranglardan foydalaniladi. Naqshdagi "Bofta" kabi bog'lovchi elementlar to'q ranglar yordamida bo'yalsa, gul, g'uncha, barg elementlari esa och ranglarda tuslanadi.

Naqsh namunalarini bo'yashda asosan garmoniya, faktura va kontrastlikka e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Garmoniya – grekcha so'zdan olingan bo'lib, munosiblik, bog'liq bo'lish, eng go'zal bog'lanish degan ma'nolarni anglatadi.

Faktura – lotincha so'z bo'lib, narsa yoki buyumning tuzilishi, ishlov berish demakdir.

Kontrast – fransuzcha so'z bo'lib, keskin farq, farqlanish ma'nosida qo'llaniladi. Naqshda ranglar kontrastini zamin va gul elementlarining tuslanishida kuzatish mumkin.

Naqshni bo'yashdan oldin tayyor bo'yoq oq qog'ozga surtib, sinab ko'riladi. Qorib tayyorlangan rang tusi talabga javob beradigan bo'lsagina, u bilan kerakli joylar bo'yab chiqiladi. Bunda naqsh namunasidagi mazkur rang tusi bilan bo'yaladigan qismlarga etadigan miqdorda bo'yoq tayyorlab olinadi. Agar bo'yoq

etmay qolsa, keyingi tayyorlangan bo'yoq tusi boshqacha bo'lib qolishi mumkin. Natijada naqsh namunasining bir butun, yaxlit ko'rinishiga putur etadi.

Siyoh qalam – eng nozik qil qalam bo'lib, uning yordamida naqsh elementlarining atroflari bir xil qalinlikda ravon chizib chiqiladi. Siyoh so'zi – qora rang degan tushunchani anglatib, qora rangda naqsh elementlarining chetlarini qalamdek chizib chiqish demakdir.

Targ'il – gul, g'uncha, barg elementlarining turli xarakterlarini taroq sifat shakllar yordamida ochib berishdir.

Band (novda) - naqshlardagi o'simlik va shoxlari bir-biriga mustahkamlanadi. Tanob - arabcha chilvir-arqon degan ma'noni bildiradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi, naqsh shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi. Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi tanob tortib keyin novdalarni chizadi, so'ngra novdalarni yo'nalishiga moslab gullarni joylashtirib chiqadi. Naqsh kompozitsiyasini chizishda tanob birinchi darajali chiziq bo'lib, uning ustidan hech qachon gul, novda yoki barg bosib o'tmaydi. Tanoblar xilma-xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Barg-o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o'simlik bargining stillashtirib olingan tasviri. Barg naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va xush beruvchi elementdir.

U tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom barg, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko'p barg, shobarg va boshqalar kiradi. Barglarning quyidagi turlari bor; shobarg eng katta barg, qo'sh barg, ko'p barg, chor barg (to'rtta barg), xurmo bargi, tol, anor, qashqarcha, madohil, qo'shbodom, qalampir, nok, sambit, butoq barg va boshqa 50 dan ortiq turlari mavjud. Gul tabiatdagi gullarning stillashtirib olingan tasviri bo'lib, naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va hush beruvchi element hisoblanadi. Gullarning har xil turlari bo'lib, ular o'ziga xos nomlanadi. Masalan; lola gul, chinni gul, savsar, atir, gultojixo'roz va boshqalar. Tuzilishiga ko'ra gullar oddiy va murakkab gullarga bo'linadi: murakkab gullarga pista gul, ko'pbargli gul va oddiy gullarga lola, oygul, no'xat gul va boshqalar kiradi. Gullar har xil tuzilishiga ega bo'lganligi uchun ularning o'ziga xos ismlari bor. Shukufta-o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, novdalarni bir-biri bilan bog'lash va yuzalarni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Marg'ula-qo'sh chiziqli gajak, o'simliksimon naqsh elementi. Agar bir novdaning ichida ikki marg'ula hosil bo'lgan bo'lsa, u qo'sh marg'ula deb yuritiladi. Agar novda bilan marg'ula tasvirlangan bo'lsa, marg'ulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida marg'ula to'ldiruvchi element hisoblanadi. Bofta-tanob aylanib o'tib hosil qilgan shakl. Islimiy naqsh elementi. Boftalar to'g'ri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'ladi. G'uncha- tabiatdagi g'unchalarning usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

Stilizasiya tabiatda uchraydigan o'simliklar, hayvonot dunyosini, uy-ro'zg'or buyumlarini tabiiy ko'rinishdan ancha soddalashtirib, eng ixcham ko'rinishlarda tasvirlash demakdir. Naqsh chizishni o'rganuvchilar ana shu usulni batafsil tushungan holda egallab olishlari lozim. Chunki ko'pgina naqsh kompozitsiyalari

ana shu tarzda qayta ishlangan turli-tuman shakllar, tasvirlar yordamida hosil qilinadi.

Naqqoshlik mashg'ulotlari jarayonida naqsh elementlarini chizish va ularni hosil qilish tartiblari yo'llari va usullari o'zlashtirib boriladi. Dastlabki mashg'ulotlarda quyidagi naqsh elementlari chizib o'rganiladi:

- barglar (barg elementlarini chizish).
- gullar (gul elementlarini chizish).
- novdalar (novda elementlarini chizish).
- bog'lam va sirtmoq (ularni elementlarini chizish).
- tanob (tanob elementlarini chizish).
- marg'ula va kurtak (uning elementlarini chizish).
- madohil elementlarini chizish.
- gajak va jingalak elementlarini chizish.
- bofta va shkufta elementlarini chizish.

Odatda badiiy naqshlar chizishda ko'proq barg tasvirlaridan foydalaniladi. Bunda barg islmiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis ko'rinishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, xina, atirgul, uzumlar va shu kabilar barglarini stilizasiyalashtirib, naqsh kompozisiyasini tuzishda qadimdan foydalanib kelganlar.

Gullar - islmiy naqsh elementi bo'lib, naqshlarga tarQil pardozi berilganidan so'ng yanada ko'rk va husn baQishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning ham behisob turlari mavjud bo'lib, o'ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko'rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, kuvachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizagul va boshqa gul turlari kiradi.

Novda - o'simliksimon naqsh elementi sirasiga kiradi. Gul, barg, meva va boshqa elementlarini o'zaro bog'lab biriktirib to'ldiradi. Namoyon ruta, morpech, munabbat, turunj va turli murakkab naqsh kompozitsiyalarida novda elementlari yakka va qo'sh bandlarda uchraydi.

Tanob - naqsh namunalaridagi asosiy shakl yo'llarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mehrob, medohil qalampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi.

Madohil – islamiy naqsh elementi. Madohil lola, tumor, uchburchak ko'rinishini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi.

Shkufta – islamiy naqsh elementi. Qisqacha shkuft deb ham ataladi. Shkufta asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak – gajak ko'rinishlarida o'zaro bog'laydi.

Ramziy naqshlar – kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarning stillashtirib tasvirlangan elementlaridan tashkil topadi.

Bes tanba - xochsimon, dunyoning to'rt tomonining ramziy ifodasi. Patsiz gilam - *alasha*, enli tasma -*baskur*, shuningdek, yog'och sandiq krovatni bezatishda qo'llanadi. Rangi: qizil yoki qora.

Jilinshek - ilik suyagi; patsiz gilam - *alasha*, kigiz xurjun - *tis-kap*, bezakli tasmalarda qo'llanadi. Qizil, qora, jigarrang, yashil, to'k qizil rangda bo'yaladi. Shuningdek, naqshni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida oq fonga qora tusli bezak ishlanadi.

Bolta - bolta. Ushbu motiv bolta shaklida bo'lib, xonadonning osoyishtaligini ifodalaydi. Rangi: qizil, jigarrang, ko'k, qora.

Baldaq ~ qo'ltiqtayiq. Bu tayanch ramzi bo'lib, kompozitsiyalarda markaziy maydonning xoshiyasida qo'llanadi. Asosan jigarrang, ko'k, yashil va qizil rangda bo'ladi. Ba'zan markaziy maydonni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida qo'shimcha tarzda boshqa tusdagi chiziqlar ham o'tkaziladi.

Irek, su - egri-bugri, suv. Kuchli himoya xususiyatiga ega. Qozoqlar unga, shuningdek, ilon, yerosti dunyosi, suv ramzi sifatida ham qarashadi. To'liqsimon chiziqli, o'ramasimon ba'zan baliq tangachalari ko'rinishidagi turli shakllari mavjud. Gilamdo'zlik, kashtachilikda qo'llanadi. Asosiy ranglari - xavorang, ko'k va binafsharang.

Taraq - taroq; jozibador ko'rishga ega. Enli tasma - *baskur*, patsiz gilam - *alasha* bezaklarida qo'llaniladi. Asosan sariq, jigarrang, qizil, ko'k, qora tusda bo'ladi.

Qanqa - gavda suyaklari. *Alasha, baskur*, kashtalarni bezashda qo'llanadigan motiv. Asosan sariq, yashil, qizil va qora tusda bo'ladi.

Dongelek - aylana; quyoshning naqshli ramzi. Qozoqlar quyosh nurini olamni

yovuz kuchlardan himoya qiluvchi, poklovchi, ezgulikka intilganlarga ko'maklashuvchi, yerga hayot baxsh etuvchi ilohiy manba sifatida tushunishgan. *Tekemet* (uy ichiga tushaladigan namat), *sirmak*, milliy liboslar ushbu shakldagi naqsh bilan bezatilgan. Asosan oq, sariq, qizil, to'q qizil, qora tusda bo'ladi. Qo'chqor shoxi shakli - *muyiz* asosiy badiiy motiv sanaladi. Farovonlik, chorvaning ko'payishi, himoya shu ramz orqali ifodalanadi. *Tekemet*, *sirmak*, *alasha* qo'chqor shoxi shakli bilan bezatilgan. Shuningdek, me'moriy inshootlarga ham qo'chqor shoxi qo'yilgan. Rangi: qizil- qizg'ish, sariq, ko'k, yashil va ko'k, jigarrang va qora.

Sinar muyiz ~ yakka shox. Qozoq naqshda keng tarqalgan shakllardan biri bo'lib, *tekemat*, *sirmak* kabi namat buyumlar yakka shox shaklidagi naqsh bilan bezatilgan. Kompozisiyaning atrofi shunday naqshda hoshiyalangan. Qora va qizil rangdagi yakka shox naqshlar keng tarqalgan.

Siniq muyiz ~ siniq shox; xalq ustalari gilam, *baskur*, *alasha*, xurjun, bo'yrallarni ushbu motiv bilan bezatishgan. Asosan qizil, to'q, qizil, yashil, jigarrang, qora tusda bo'lgan.

Omirtqa - umurtqa; naqsh kompozitsiyasi markazida hamda hoshiyasida turli shakllarda uchraydi. Ko'k, to'q qizil, qizil, jigarrang va qora tusli naqshlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tishsan iz- sichkon izi; gilam, *korjin* (xurjun), *ayak-kopni* bezatishda qo'llanadi. Ushbu motiv kompozitsiyada hoshiya vazifasini bajaradi. Asosan qizil, jigarrang, to'q qizil, qora tusda buladi.

Botago'z – bo'tako'z; qozoqlar rombni serfarzandlik ramzi deb bilishadi. Ushbu naqsh yovuz kuchlarni qaytaradi, deb xisoblashgan. Kishilar ko'z xam xuddi so'z singari ilohiy qudratga ega bo'lib, ba'zan u xalok ham qiladi, deb ishonishgan. Bo'tako'z naqsh unsuri kompozitsiyaning markaziy qismida ham, buyumning hoshiyasida ham qo'llangan. Qizil, jigarrang, qora, ko'k tusli bo'tako'z naqshlar ko'p uchraydi.

It quyriq - itquyruq; kamjixatlik, ezgu niyat hamda ko'z tegishi, suq kirishidan

asrovchi xususiyatga ega deyilgan. Shu bois o'tovning eshigi, krovatning sirti, shuningdek, kigizlar ham itquyruq naqshlar bilan bezatilgan. Rangi: jigar rang, to'q qizil, yashil.

Tuye taban - tuyatovon; mol-davlat, chorvaning ko'payishi kabi farovonlikni bildiruvchi ramz, deb qaralgan. Xalq hunarmandchiligi buyumlari, yog'och o'ymakorligi buyumlari, kashta, kigiz buyumlar tuyatovon naqshlar bilan bezatilgan. Asosan jigar rang, to'q qizil, qora rangda bo'ladi.

2. AMALIY SANA'T BUYUMLARINI NAQSH KOMPOZITSIYASI ASOSIDA BEZASH.

Javon — xona (mehmonxona)ning ichki devoridagi tokchalar qatori, oynavand shkaf.

Mehrob (arab. — harb joyi; bu yerda namoz paytida shayton bilan imom o'rtasidagi urush joyi ma'nosida) — masjidning Makka (Kaba)ga qarata yo'naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdagoh. Mehrob yarim aylana, ko'p qirrali, to'g'ri to'rtburchak shaklda ishlanib, tepasi ravoq yoki yarim aylana shaklida bezaladi, atrofi hoshiyalangan bo'ladi. Ayrim mehroblar yog'och, ganch, naqshinkor marmar va koshinlar bilan qoplangan, badiiy bezakli ustunlar va ravokdi hoshiyalar bilan bezatilgan. Mehrob islom dinining dastlabki davrlaridan mavjud. Namoz vaqtida imom Mehrobgga o'tib, kiblaga yuzlanadi va uning orqasidan jamoa bo'lib namoz o'qiladi.

Ikkalisini dizayinin birlashtirgan xolda bir shkafcha yasadim. Shuning ustiga Qo`qon naqqoshlik maktabi eskizidan asosida yangicha eskizlar yaratib, shkafchamga tushirdim.

O`simliksimon naqshlar asosan gul novda, kurtak, barg, quncha kabi elementlarning o`zaro ma'lum tartibda boqlanib tuzilishidir. Islimiy naqshlar tabiatan novda elementlarining bir tomonlama qarakatlanib o`suvchanligini anglatish bois yuguruvchi nomiga qam ega. Jumladan majnuntol, chirmovuq kabi o`simlik elementlari aks ettirilgan naqshlarni kuzatar ekanmiz, ko`z ilqamas jimjimali novda yo`llari tabiatan bir tomonga xarakatlanib chizilganligini yaqqol sezamiz. O`simliksimon naqshlar yakka (bir) va qo`sh (ikki) bandli novda ko`rinishlarida ishlanadi. Ularga misol qilib: ruta xoshiya, raftor, namoyon, meqrob, turunj, munabbat va xokazo kabi naqsh namunalarini olish mumkin.

Giriq naqshlar chigal, tugun degan ma'noni anglatib, to`qri chiziqlarning o`zaro kesishuvi natijasida geometrik shakllarni hosil qiladi. Giriq naqshlari ham islmiy naqsh turlari singari ma'lum taqsim (rapport) bo`laklardan iborat bo`lib, aloqida tuzilishlarga ega bo`ladi. Giriq naqshlari panjara-to`siq ma'nosini qam anglatib to`r

kataklari yordamida tez va onson chiziladi. Panjara naqshlari ayniqsa pargori uslubida, turli o`ymakorlik san'atlarida ham qo`llaniladi.

Gulli giriq deb ataluvchi murakkab naqshlar o`simliksimon va geometrik naqsh turlarining o`zaro birikishidan qosil bo`ladi.

Naqshda elementlarning o`zaro birikib borishi, muttanosib boqlanishlari naqshning butun bir yaxlitligini tashkil etadi.. Naqsh chizishni o`rganishda dastlab quyidagi shakllar chizib o`rganiladi: barglar, gullar, novdalar, boqlam va sirtmoq, marqula va kurtak, madoqil elementlarini chizish, gajak va jingalak elementlarini chizish, bofta va shkufta elementlarini chizish .

Buyuk allomalar, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy va boshqalarning ilmiy, tibbiy, ma'naviy hamda qur'on oyatlari zarxal naqshlar bilan bezatildi. Naqqoshlikda turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy falsafiy ma'nolari kengroq ifodalana boshlandi:

Kvadrat – abadiylik, mustaxkamlik .

Quyosh – hayot ramzi.

Zirk guli (gulsafsar) osoyishtalik va uzoq umr.

Olma – muxabbat ramzi.

Sher – mardlik, adolat va kuchlilik ramzi.

Xumo – baxt keltiruvchi qush.

Yashil rang – ona zamin.

Havo rang – musaffo osmon.

III-bob bo'yicha xulosa:

Dissertatsiyamni ushbu bobini tayyorlash jarayonida xalq amaliy san'ati turlarining Qo`qon maktablari bilan yanada yaqindan tanishdim.

O`zbek xalq amaliy san'atining ildizida Naqqoshlik san'ati yotadi va shu tur orqali boshqa amaliy san'at asarlari yaralishini o`ylagan sari ishimni o`rganish darajasi yanada kuchaydi.

Javon va mehrobni dizayini birlashtirgan xolda bir shkafcha yasadim. Shuning ustiga Qo`qon naqqoshlik maktabi eskizidan asosida yangicha eskizlar yaratib, shkafchamga tushirdim.

Qo`qon naqqoshlik maktanining naqshlarini ishlash texnologiyasini va ularni milliy buyumlarni bezashda ishlatilishini o`rganish maqsadida , ushbu shkafchamni ishlash jarayonida o`rgandim.

Ummuniy xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Dunyoning oddiy insonlari ko'ra olmagan jihatlarini ko'ra olish faqatgina rassomlargagina xos! Ular yaratgan asarlarida shunday narsalarni namoyon qiladilar! Ana shunday go'zalliklarni yaratib, dunyoga tarannum eta olgan Qo'qon naqqshlari o'ziga xosdir!

Ikkinchi Jahon urishini tugatib, o'z uyiga qaytib, vatanimiz tuprog'ini ko'ziga surtib, o'z ota-bobolarining kasbi "Naqqoshlik"ni davom ettirish ishtiyoqi bilan yashab, go'zallik targ'ibotchisi bo'lish niyatini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Usta Saidahmad Mahmudov ota 1909-yilda Qo'qon shahrida "Hunarmand" naqqoshlar oilasida tavallud topdilar. Otasi Saidmahmud Norqo'ziyevdan naqqoshlik san'atini bolalik chog'idayoq o'rganib, mohironalik sirini olgan.

Qo'qon shahrining mashhur naqqoshi Saidmahmud Norqo'ziyev respublikamizda tanimaydigan odam bo'lmas kerak. Saidmahmud Norqo'ziyev 1883-yili Qo'qon naqqoshlar oilasida tug'ilgan. Otasi Norqo'zi Nurmatov va bobosi Nurmat Hoshim ham Usta-naqqoshlardan biri. Ulardan bu san'atni o'rgangan usta haqida P.Sh. Zohidovning "Me'mor san'ati" kitobida naqqosh-ustaga shunday ta'rif beradilar: "Saidmahmud Norqo'ziyev tuzgan ornamentlar arxitekturadagi xalq an'analarini uzviy davom ettirishi bilan doimo yangi va originaldir. Usta qadimiy ornamentlardan tashkil etuvchi barcha elementlarni yoddan biladi. Ushbu elementlardan foydalanib, yangidan yangi kompozitsiyalar yaratadi.

Usta Saidmahmud o'z hunarini tugal egallagan mohir san'atkordir. Uning qo'lida mo'yqalam mo'jizlar yaraladi".

1913-yili usta Saidmahmud otasidan fотиha olgan bo'lsa, 1930-yillardan boshlab o'g'li Saidahmadni shogirt sifatida o'z hunarini to'la o'rgata boshlagan. Saidmahmud Norqo'ziyevning otasi bilan yaratgan asarlari: Hozirda xalq amaliy san'at muzeyi binosi va Farg'ona va Andijondagi bir qancha uylarni bezalishida namoyon bo'lsa, Saidahmad otasining otasi Saidmahmud boboning ishlari Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta Teatrda, qo'qon choyxonasida va Qo'qon shahrining Xudoyorxon O'rdasida, Jome masjidda namoyon bo'ladi va ularning naqsh kompozitsiyasidan foydalanib ganch ustalari ganchkorlik san'ati namunalarini yaratganlar. Bundan tashqari ular chegaradosh davlatlarda ham ularning naqshlarini uchratishingiz mumkin.

1945-yili Usta Saidahmad ikkinchi Jahon urushidan bir oyog'i nogiron bo'lib, "Jasorati uchun" nishoni bilan qaytishgan. Ular shundayligidan nolib shunday deydi: -"Meni oyog'im nogiron bo'lmaganida xalqimga bundanda ko'proq xizmat qilgan bo'lardim. Go'zallikni targ'ibot qilgan bo'lardim. Chunki dunyoga go'zallik bilan boqish kerak!"

Shunday insonlar o'zbek xalqining milliy madaniyatha juda ham katta xissa qo'shganlar. O'z tajribalarini shogirtlariga iz qilib qoldirishgan. Saidahmad otaning yetmishga yaqin shogirtlari bo'lgan, ularga san'atini mohironalik bilan to'garak sifatida o'rgatishgan. Shogirtlarining hozirgi zamonaviy binolarni naqsh bilan bezab, Qo'qon an'anaviy naqqoshlik maktabini davom ettirmoqdalar.

Ustani usta emas Ustoz deb atasak to'g'ri bo'ladi. Bizga meros qilib qoldirgan asarlari bebahodir. Ustoz naqqoshlik san'ati bilan kifoyalanib qolmay, hattotlikdan

ham habardor bo'lgan ekanlar. 14 yoshlarida Qur'oni Karimni yod oldilar. O'z asarlarida ham Qur'onning Oyatlarini hattotlik san'ati yordamida chizib, bezatdilar va bu san'atini o'z davomchilariga ham baham ko'rishganlar"-deydi, Shahodatxon xoji ona!

-“Men bu fayzli xonadonda dadajonim birga qirq yil yashadik! Meni o'z qizlaridek qabul qilishdilar. Mana shu ko'rib turgan xonadoningizda dadajonimning ota-bobolari yashab ijod qilganlar, ya'ni to'qqiz avlod shu uyda yashaganlar. Yana bir gapni ko'p ta'kidlar edilar: Biz yaratgan naqshlar o'ziga xos, takrorlanmas, mayda, ulanib ketadigan naqshlardir! Meni naqshlarimni bir qarashda ajratib olish mumkin!-deyishardi. Hozirgi kunda yetmishga yaqin shogirtlaridan 5 nafarginalari hayot va ular Qo'qon shahrining “Hunarmandlar Uyishmasi” faxriy a'zolari.”

Qo'qon naqqoshlik maktabi va uning namoyondalari haqida gapirsam ham kam, tugab ado bo'lmaydi. Ular haqida qancha yozish, qilgan ishlarini madh etish mumkin. Bu ustazodalarni ijodi o'rganar ekanman, Ularning ko'rgan kechirganlari ko'z oldimda namoyon bo'ldi va bu ilmiy ishimni olganimdan yanada to'lqinlanib yubordi va yanada chuqurroq izlanishga kirishib kettim. Haqiqatdan ham go'zallik kuychilarini yaratgan naqshlar jilvador, ko'zni qamashtiradi.

Dissertatsiyamni tayyorlash jarayonida xalq amaliy san'ati turlarining Qo'qon maktablari bilan yanada yaqindan tanishdim.

O'zbek xalq amaliy san'atining ildizida Naqqoshlik san'ati yotadi va shu tur orqali boshqa amaliy san'at asarlari yaralishini o'ylagan sari ishimni o'rganish darajasi yanada kuchaydi.

Javon va mehrobni dizayini birlashtirgan xolda bir shkafcha yasadim. Shuning ustiga Qo'qon naqqoshlik maktabi eskizidan asosida yangicha eskizlar yaratib, shkafchamga tushirdim.

Naqsh ishlash jarayonida Qo'qon naqshini elementlaridan foydalanib, ustoz shogirt an'analarini davom ettirgan holda, o'z maktabimni yaratdim, deb o'ylayman.

Qo'qon naqqoshlik maktabining naqshlarini ishlash texnologiyasini va ularni milliy buyumlarni bezashda ishlatilishini o'rganish maqsadida, ushbu dissertatsiyamni tayyorlash jarayonida va shkafchamni ishlash jarayonida o'rgandim. O'zimga kerakli malumotlarga ega bo'ldim.

Ushbu dissertatsiyamni davom ettirishni eng katta maqsad qilib qo'ydim!

Takliflar:

1. Yo`qolib borayotgan Qo`qon naqqoshlik maktabini Ustoz shogird an`anasiga muvofiq tashkil etish va targ`ibot ishlarini olib borish;
2. Uy-joy qurilish, to`yxona, ko`ngilochar binolarini qurish va ta`mirlash jarayonida Qo`qon naqshlarini qo`llash, milliy man`aviy va madaniy merosimizni saqlagan holda hozirgi dunyodagi “Hunarmandlar shahri” nomini yanada baland va yuksaklarga ko`tarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz ». O`zbekiston-2017y.
2. Sh.Mirziyoyev «TANQIDIY TAHDID, QAT`IY TARTIB- INTIZOM VA SHAXSIY JAVOBGARLIK- HAR BIR RAHBAR FAOLIYATINING KUNDALIK QOIDASI BO`LISHI KERAQ» O`zbekiston-2017y.
3. S.Bulatov «O`zbek Xalq amaliy bezak san`ati» Toshkent-2004y.
4. X. Rafiqova “Ferganski rospis”Toshkent-2006.y.
5. O`zbekiston san`ati. Sharq nashriyoti. Toshkent – 2001-yil.
6. O`zbekiston san`ati. Toshkent-2001
7. Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.T. O`zbekiston, 2000-y.
8. O`zbekiston san`ati. Sharq nashriyoti. Toshkent – 2001-yil. 4-bet
9. San`at jurnali. O`zbekiston badiiy akademiyasi. 3./2012 soni. 11-bet
- 10.O`zbekiston san`ati. Sharq nashriyoti. Toshkent – 2001-yil. 26-bet
- 11.“Амир Темур” (Самарканд), “Мирзо Улугбек” (Нукус) ва куплаб она ва бола, мотамсаро она хайкаллари ни таъкидлаш мумкин.
- 12.Катагон килинган ватандошларимиз.
- 13.K.Aqilova, I.Abdurahmonov. Tasviriy san`atda afsona va rivoyatlar. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi T. 2016-yil. 55-57-betlar.
- 14.Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Лойиҳа муаллифи ва ижодий ругурҳ раҳбари А.Жўраев. Безакларни рассом Акмал Нур чизган.тошкент. “Шарқ”. 2001 й.
- 15.Б.Б.Орипов. Наманган тасвирий санъати. Н, 2000й.
- 16.X.Raximov. Namangan rangtasvir san`ati ривожда ёш ижодкорларнинг ўрни. Фарғона водийси Олий ўқув юртлари турдош кафедралари илмий анжумани. Илмий мақолалар тўплами. НамДУ, 2018.
- 17.O`zbekiston san`ati. Sharq nashriyoti. Toshkent – 2001-yil. 26-bet.
- 18.R.Hasanov. Tasviriy san`at asoslari. G‘.G‘ulom nash. Toshkent – 2009-yil.

- 19.N.Abdullayev. O‘zbekiston san’ati tarixi. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T. 2007-y.
- 20.A. Sulaymonov. Sharq miniatyura san’ati. Toshkent. 2005 yil.
21. A. Sulaymonov, N. Abdullayev Tasviriy san’at 7- sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent- 2002 yil.
- 22.Amaliy san’at qisqacha lug‘ati. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent.1992 y
23. Barkamol avlod – kelajagimiz tayanchi. – T: “Ma’naviyat”, 2010 y.
24. Bulatov S., A. Dadashev. Naqsh alifbosi Toshkent. 2005 y.
- 25.Bulatov. S. Xalq amaliy san’ati. Toshkent 2000 y.
26. J. Majidov Maktabda tasviriy san’at bo‘yicha o‘quv – tarbiya ishlarini tashkil etish.
- 27.R. Hasanov. Amaliy bezak san’ati mashg‘ulotlari metodikasi.Toshkent. 2003 yil.
28. Н.Абдуллаев Санъат тарихи II-жилд I-китоб «Санъат», Тошкент, 2001
- 29.Азимов И. Ўзбекистон нақшу нигорлари. Тошкент: Гафур Гулом, 1987.
- 30.Апухтин О.К. Бадий нақш мактаби. Тошкент: Ўқитувчи,1969.
- 31.Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент: Меқнат, 1994.
Булатов С. Амалий санъат қисқача луғати. Тошкент, 1992.
32. Круковская С.М. Искандар Икромов. Тошкент: Гофур Гулом, 1967.
- 33.Матвеева Т.А. Мозаика и резьба по дереву. Москва: Внспная школа,1989.
- 34.Набиев М. Рангшунослик. Тошкент: Уқитувчи, 1995.
- 35.Народное искусство Узбекистана. Тошкент: Гафур Гулям, 1979.

- 36.Орипов Б. Тасвирий санъат дарслари самарадорлигини ошириш.
Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
- 37.Основны декоративного искусства в школе. (коллектив). Москва:
Просвещение, 1981.
- 38.Понамарков С.И. Декоративное и оформительское искусства в школе.
Москва: Просвещение,1979.
- 39.Рахимов М. Художественная керамика Узбекистана. Тошкент, 1961.
40. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в
школе. Москва: Просвещение, 1974.
- 41.Сергеев Б.С. Чеканка по меди в Узбекистане. Тошкент, 1962.
42. Сухарева О.А. История Среднеазиатского костюма. Тошкент
Наука,1982.
- 43.Хворостов А.С. Декоративно прикладное искусство в школе. Пособие
для учителей. Москва: Просвещение, 1981.
44. Шпикалова Т.Н. Народные искусство на уроках декоративного
рисования.
Москва: Просвещение. 1974. Чепелевская Г. Сюзани Узбекистана.
Ташкент, 1961.
- 46.Эгамов Х. Бўёқлар билан ишлаш. Тошкент: Ўқитувчи,1981. -Қосимов
Х. Наққошлик. Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
- 47.www.ZiyoNET.uz
- 48.www.wikipedia.org
- 49.www.kitobxon.com
- 50.www.kokand.uz
- 51.www.GOV.uz
- 52.www.m.kun.uz
- 53.www.uzreport.uz
- 54.www.uza.uz
- 55.www.dsmi.uz
- 56.www.pv.uz

ILOVALAR;



1-ilova.

Xalqaro hunarmandchilik festivalidan lavhalar;



